



acfp
Uzbekistan

Association of
Certified Finance
Professionals

B.LW **Huquq asoslari**

2026 yilgi imtihon namunasi



B.LW **Хуқуқ асослари**

2026 йилги имтиҳон намунаси





acfp
Uzbekistan

Association of
Certified Finance
Professionals

B.LW

Huquq asoslari

2026 yilgi imtihon namunasi



Mundarija

SAVOLLAR	2
JAVOBLAR	18

B.LW Huquq asoslari Imtihon namunasi

SAVOLLAR

1-savol

«A» kompaniyasi «B» kompaniyasi bilan qarz berish to'g'risida shartnoma tuzdi. Shartnomada taraflar qarz oluvchi qarz summasini qaytarishi lozim bo'lgan muddatni ko'rsatishmadi. 1 avgustda Qarz beruvchi FKning 242-moddasiga asoslanib, qarzni qaytarishni talab qildi. Qarz oluvchi FKning 735-moddasiga asoslanib, buni amalga oshirishdan bosh tortmoqda. Ushbu holatda qaysi me'yor qo'llanilishi kerak?

- A. FK 242-m.
- B. FK 735-m.
- C. FK me'yori qarz oluvchi tomonidan belgilanadi
- D. FK me'yori qarz beruvchi tomonidan belgilanadi

2-savol

Soliq organining «A» soliq to'lovchisiga nisbatan da'vosi bo'yicha sud jarayoni chog'ida soliq maslahatchisi «B» soliq to'lovchisi foydasiga hal qilingan shunga o'xshash vaziyatga havola qildi. Sudya sud pretsedentini inobatga olishi shartmi?

- A. ha, shart, chunki sud pretsedenti huquq manbalaridan biri hisoblanadi
- B. yo'q, shart emas, chunki soliq organi va soliq to'lovchi o'rtasidagi har qanday nizo o'ziga xosdir
- C. ha, shart, ammo faqat nizoning barcha tafsilotlari mos kelsa
- D. yo'q, shart emas, chunki sud pretsedenti huquq manbasi hisoblanmaydi

3-savol

O'zbekiston Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi qarorida 2022 yil 1 apreldan boshlab chakana savdo va ayrim xizmat turlari sohasidagi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliqni 1 %gacha kamaytirish nazarda tutilgan edi. 2022 yil 28 yanvarda qaror rasmiy manbalarda e'lon qilindi. 2022 yil 26 iyuldagi qonun bilan ushbu imtiyoz Soliq kodeksiga kiritildi. Tadbirkorlar ushbu soliq imtiyozlarini qachon qo'llashlari mumkin?

- A. 27 yanvardan, Prezident qarori sanasidan
- B. 28 yanvardan, qaror rasmiy manbalarda e'lon qilingan paytdan
- C. 26 iyuldan, Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi Qonun chiqqan sanadan
- D. Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar kuchga kirgan sanadan

4-savol

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yildagi qarori me'yori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yildagi qarori me'yoriga zid kelmoqda. Soliq to'lovchi qaysi me'yorni qo'llashi kerak?

- A. soliq to'lovchi o'zi uchun manfaatliroq me'yorni qo'llaydi, chunki barcha qarama-qarshiliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi
- B. qarama-qarshiliklar to'liq bartaraf etilgunga qadar huquqiy me'yor qo'llanilmaydi
- C. soliq to'lovchi 2023 yildagi qaror me'yorini qo'llaydi
- D. soliq to'lovchi 2022 yildagi qaror me'yorini qo'llaydi

5-savol

Markaziy bank boshqaruvining «Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 8/7-sonli qarori:

- 31.03.2023 yilda qabul qilingan;
- Adliya vazirligi tomonidan 27.04.2023 yilda ro'yxatga olingan;
- lex.uz saytida 28.04.2023 yilda e'lon qilingan;
- «Bank axborotnomasi» gazetasida 2.05.2023 yilda e'lon qilingan.

Qarorda kuchga kirish muddatlari ko'rsatilmagan.

Ushbu qaror qachon kuchga kiradi?

- A. qabul qilingandan keyingi kundan – 1.04.2023 yildan
- B. lex.uz saytida e'lon qilingan kundan – 28.04.2023 yildan
- C. Adliya vazirligida ro'yxatga olingan kundan – 27.04.2023 yildan
- D. «Bank axborotnomasi» gazetasida e'lon qilingan kundan – 2.05.2023 yildan

6-savol

Soliq qo'mitasining saytida Prezident qarori bilan berilgan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi uning tushuntirishi e'lon qilingan. Quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri hisoblanadi?

- A. tushuntirish Soliq qo'mitasidan chiqqanligi va uning rasmiy saytida e'lon qilinganligi sababli barcha soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi majburiydir
- B. tushuntirish idoraviy me'yoriy hujjat hisoblanadi
- C. tushuntirish me'yoriy-huquqiy hujjatning rasmiy talqini hisoblanmaydi
- D. tushuntirish Soliq qo'mitasi tomonidan berilgan me'yoriy-huquqiy hujjatning rasmiy talqini hisoblanadi

7-savol

O'zbekiston Soliq kodeksining 408-moddasida «Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar tomonidan soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari» mehnat shartnomasi asosida chet elda yollanib ishlayotgan O'zbekiston fuqarolari to'g'risida me'yor mavjud. Ushbu me'orning 408-moddada joylashgan o'rnini ko'rsating.

- A. 408-modda 2-qismi 5-bandi
- B. 408-modda 2-qismi 5-xatboshi
- C. 408-modda 1-qismi 11-xatboshi
- D. 408-modda 11-xatboshi

8-savol

Oldi-sotdi shartnomasi 2023 yil 31 mayda imzolandi. Xaridor shartnoma imzolanganidan keyin 5 kalendar kun ichida bo'nak to'lashni o'z zimmasiga olgan. Bo'nak qanday muddatda to'lanishi kerak?

- A. 8 iyungacha
- B. 7 iyungacha
- C. 6 iyungacha
- D. 5 iyungacha

9-savol

Kompaniya yakka tartibdagi tadbirkor bilan qiymati 200 mln so'mlik kompyuter dasturini ishlab chiqishga doir shartnoma tuzmoqchi. Qaysi fikr to'g'ri?

Ish bajarilmagan taqdirda yakka tartibdagi tadbirkor o'z majburiyatlari bo'yicha quyidagicha javob beradi:

- A. o'zining barcha mol-mulki bilan, hatto unda jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa ham
- B. biznesda foydalanadigan barcha mol-mulki bilan, shu jumladan hisobraqamidagi pullar bilan
- C. jismoniy shaxs sifatida unga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk bilan, bundan qonunda belgilangan ro'yxat mustasno
- D. biznesda foydalanadigan barcha mol-mulki bilan, shu jumladan hisobraqamidagi pullar bilan, bundan qonunda belgilangan mol-mulk ro'yxati mustasno

10-savol

Yuridik shaxsning balansida bo'lib-bo'lib to'lab berish sharti bilan sotib olingan va u tomonidan mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanilayotgan xom ashyo mavjud. Uning mulkdori kim hisoblanadi?

- A. yuridik shaxsning muassislari, chunki ular o'z mablag'larini yuridik shaxsning ustav kapitaliga kiritganlar
- B. xom ashyoni sotuvchi, chunki u hali ushbu xom ashyo uchun barcha mablag'larni olmagan

- C. balansida xom ashyo mavjud bo'lgan yuridik shaxs
- D. yuridik shaxsning xodimlari, chunki ular xom ashyodan foydalanadilar

11-savol

Yuridik shaxsning muassislari hududda yuridik shaxs bo'lmagan filialni ochishga qaror qildilar. Filial nima asosida faoliyat yuritadi?

- A. filial uni tashkil etgan yuridik shaxsning ustavi asosida faoliyat yuritadi
- B. filial ustavi asosida
- C. filialni tashkil etgan yuridik shaxsning muassislari tomonidan tasdiqlangan nizom asosida
- D. filialni tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan nizom asosida

12-savol

«A» o'quv markazi tijorat tashkiloti, «B» o'quv markazi esa notijorat tashkilot hisoblanadi. Quyida keltirilgan fikrlardan qaysilari to'g'ri?

- A. «A» o'quv markazi pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga haqli, «B» o'quv markazi esa ta'lim xizmatlarini bepul ko'rsatishi shart
- B. «A» o'quv markazi ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlardan soliq to'laydi, «B» o'quv markazi esa – to'lamaydi, chunki u xizmatlarni tannarxidan yuqori bo'lmagan narxlarda ko'rsatishi kerak
- C. «A» o'quv markazi foyda olish maqsadlarida, «B» o'quv markazi esa – ijtimoiy maqsadlarda tashkil etilgan
- D. «A» o'quv markazi foydani muassislar o'rtasida taqsimlashga haqli, «B» o'quv markazi esa – haqli emas

13-savol

Quyida sanab o'tilgan shaxslardan kim yuridik shaxsning mansabdor shaxsi hisoblanadi?

- A. faqat yuridik shaxsning direktori, chunki bu qonunchilikda nazarda tutilgan
- B. faqat yuridik shaxsning rahbari va uning bosh buxgalteri, chunki ular qonunga binoan moliya va xo'jalik faoliyati bo'yicha hujjatlarni ishonchnomasiz imzolash huquqiga ega
- C. direktor, bosh buxgalter va bosh yurist
- D. tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajaruvchi va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishga vakolatli har qanday shaxs

14-savol

Muassislar mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tuzilgan zarar ko'rib ishlayotgan kompaniyani tugatishga qaror qildilar. Kompaniya tugatilganda kreditorlarga qarz qanday navbatda so'ndiriladi?

- A. soliqlar, ish haqi, alimentlar, bajarilgan ish uchun yakka tartibdagi tadbirkorga bo'lgan qarz
- B. ish haqi, alimentlar, mualliflik haqi, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar, soliqlar, boshqa kreditorlarning talablari
- C. ish haqi, soliqlar, bajarilgan ish uchun yakka tartibdagi tadbirkorga bo'lgan qarz, sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun qoplash summolari
- D. sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun qoplash summolari, alimentlar, soliqlar, ish haqi

15-savol

Mulkdorlarning mol-mulki to'g'risida quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. yuridik shaxslar mulk huquqi asosida o'zlariga tegishli mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javob beradilar
- B. mulkdor o'zi tashkil etgan yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, ular ham mulkdorning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno
- C. jismoniy shaxslar mulk huquqi, to'liq xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqi asosida o'zlariga tegishli mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javob beradilar
- D. agar yuridik shaxsning bankrotligi ishtirokchining (muassisning) g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, ishtirokchi (muassis) yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha javob beradi

16-savol

Qayta tashkil etish shakllaridan qaysilari qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslardan faqat bittasining faoliyati tugashiga olib keladi?

- A. «A» kompaniyasi va «B» kompaniyasining qo'shib yuborilishi
- B. «A» kompaniyasining «B» kompaniyasiga birlashtirilishi
- C. «A» kompaniyasining «B» va «C» kompaniyalariga bo'linishi
- D. «A» kompaniyasining qayta tuzilishi

17-savol

«A» kompaniyasi o'z kuchi bilan olib ketish sharti bilan «B» kompaniyasidan zarur xom ashyoni sotib oldi. Oldi-sotdi shartnomasi 20 iyunda tuzilgan, xom ashyo «A» kompaniyasining transporti bilan «B» kompaniyasining omboridan 25 iyunda olib ketilgan. Shu kuni «B» kompaniyasi elektron hisobvaraqq-faktura taqdim etdi, uni «A» kompaniyasi 30 iyunda tasdiqladi. Xom ashyo uchun to'lov 1 iyulda to'liq amalga oshirildi. Agar oldi-sotdi shartnomasida xom ashyoga bo'lgan mulk huquqini topshirish sanasi haqida hech narsa aytilmagan bo'lsa, «A» kompaniyasi qaysi sanadan boshlab xom ashyoning mulkdoriga aylangan?

- A. 20 iyundan
- B. 25 iyundan
- C. 30 iyundan
- D. 1 iyuldan

18-savol

«A» kompaniyasi 15 mayda «B» kompaniyasi bilan ko'chmas mulk obyektni sotib olish to'g'risida shartnoma tuzdi va 16 mayda taraflar shartnomani notariusda tasdiqladi. Shartnoma bo'yicha to'lov 20 mayda amalga oshirildi va 3 kundan so'ng – 23 mayda obyektni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolandi. 21 iyunda obyektni davlat kadastr organlarida ro'yxatga olindi. A kompaniyasi qaysi sanadan boshlab ko'chmas mulk obyektni mulkdori hisoblanadi?

- A. 23 maydan
- B. 16 maydan
- C. 21 iyundan
- D. 20 maydan

19-savol

«A» kompaniyasi «B» kompaniyasining aksiyalarini sotib oldi. Quyida keltirilgan ifodalardan qaysi biri «A» kompaniyasiga ushbu aksiyalarga egalik qilish beradigan huquqlarni to'liqroq aks ettiradi?

- A. «A» kompaniyasi «B» kompaniyasi tomonidan hosil qilinadigan qat'iy belgilangan daromadni olish huquqini oldi
- B. «A» kompaniyasi «B» kompaniyasi kapitalidagi ulushga bo'lgan mulk huquqini oldi
- C. «A» kompaniyasi «B» kompaniyasining foydasiga bog'liq bo'lgan daromadni olish huquqini oldi
- D. «A» kompaniyasi «B» kompaniyasining strategik qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish huquqini oldi

20-savol

Kompaniya litsenziya shartnomasi bo'yicha EHM uchun dasturga mutlaq bo'lmagan mulkiy huquqlarni sotib oldi. Kompaniya o'z xarajatlarini qisqartirish uchun dasturdan foydalanish huquqini yana bir nechta tashkilotlarga berishi mumkinmi?

- A. ha, mumkin, chunki EHM uchun dasturga bo'lgan huquqlar mutlaq hisoblanmaydi
- B. yo'q, mumkin emas, chunki kompaniya EHM uchun dasturning mulkdori hisoblanmaydi
- C. ha, mumkin, agar bu litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa
- D. yo'q, mumkin emas, chunki dasturga bo'lgan mutlaq bo'lmagan huquq bunday imkoniyatni bermaydi

21-savol

Jismoniy shaxs o'ziga meros sifatida qolgan kvartirani sotmoqda. Bu tadbirkorlik faoliyati hisoblanadimi?

- A. ha, kvartirani sotish tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi, chunki jismoniy shaxs daromad oladi
- B. yo'q, bu tadbirkorlik faoliyati emas

- C. agar sotish qiymati sotib olish qiymatidan yuqori bo'lsa, bu tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi
- D. agar jismoniy shaxs shu yil davomida bitta yoki bir nechta kvartirani sotgan bo'lsa, bu tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi

22-savol

Germaniya kompaniyasi 2021 yildan beri uzluksiz ravishda rezident bo'lgan komissioner orqali tovarlarni O'zbekistonga yetkazib bermoqda. Yetkazib berish shartnomalarini komitent tuzadi. Komissioner mustaqil agent hisoblanadi va ko'plab chet el kompaniyalariga xizmat ko'rsatadi. Ushbu holatda O'zbekistonda doimiy muassasa tashkil etish majburiyati yuzaga keladimi va nima uchun?

- A. ha, yuzaga keladi, chunki komissioner O'zbekistonda chet el yuridik shaxsi nomidan ish yuritadi va tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha shartnomalar tuzadi
- B. ha, yuzaga keladi, chunki faoliyat ketma-ket 12 oylik davr davomida 183 kundan ko'proq davom etadi
- C. yo'q, yuzaga kelmaydi, chunki kompaniya filial, bo'linma yoki vakolatxona tashkil etmagan
- D. yo'q, yuzaga kelmaydi, chunki chet el kompaniyasi kompaniya nomidan shartnomalarni imzolashga vakolatli bo'lmagan mustaqil agent orqali ish yuritadi

23-savol

Yagona ishtirokchi avtosalonidan sotib olgan shaxsiy avtomobilini qo'shimcha hissa sifatida kiritish orqali jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga qaror qildi. Oldi-sotdi shartnomasiga asosan avtomobilning qiymati 225 mln so'mni tashkil etadi. Transport vositasini baholash to'g'risidagi hisobotga asosan, amortizatsiya va texnik holatni hisobga olgan holda, baholash obyektining qiymati 200 mln so'mni tashkil etdi. Muassis ustav fondiga mulkiy hissaning pul bahosini 250 mln so'm qilib tasdiqlashga qaror qildi. Jamiyatning ustav fondini qanday miqdorda ko'paytirish huquq nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lishini ko'rsating?

- A. avtomobilning oldi-sotdi shartnomasi asosida 225 mln so'm
- B. transport vositasini baholash to'g'risidagi hisobot asosida 200 mln so'm
- C. yagona ishtirokchining qarori asosida 250 mln so'm
- D. Ustav fondi avtomobil ko'rinishida mulkiy hissa kiritish orqali ko'paytirilmaydi

24-savol

Mas'uliyati cheklangan jamiyatga qo'shimcha kapital jalb qilish va ishtirokchilar tarkibiga chet el kompaniyasini kiritishning oqibatlari qanday? Barcha to'g'ri javoblarni tanlang.

- A. «A» kompaniyasining ustav fondi ko'payadi
- B. kompaniya O'zbekistonning norezidenti maqomini oladi
- C. avvalgi muassislarning ishtirok etish ulushlari o'zgarmaydi
- D. kompaniya O'zbekistonning rezidenti maqomini saqlab qoladi

25-savol

Kompaniya ishtirokchilari direktor bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga va yangi direktorni tayinlashga qaror qildilar. Bo'shatilgan direktor nomiga berilgan kompaniyaning elektron raqamli imzosi (ERI) bilan qanday harakatlar amalga oshirilishi kerak?

- A. direktor nomiga berilgan kompaniyaning ERIdan keyinchalik foydalanish biron-bir harakatlarni yoki xabardor qilish tartib-taomillarini talab qilmaydi
- B. bo'shatilgan direktor o'z nomiga berilgan kompaniyaning ERIning yangi direktorga topshirishi, u esa – autentifikatsiya omillarini o'zgartirishi shart
- C. bo'shatilgan direktor nomiga berilgan kompaniyaning ERI bekor qilinadi, yangi direktor yangi ERI olish uchun ariza beradi
- D. kompaniyaning yangi direktori ERIning bergan Davlat ro'yxatidan o'tkazish markazini direktor almashganligi to'g'risida xabardor qilishi shart

26-savol

«Yagona davlat nazorati» axborot tizimi to'g'risida quyida keltirilgan fikrlardan qaysilari to'g'ri?

- A. «Yagona davlat nazorati» axborot tizimida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan biznes tekshiruvlarining barchasi ro'yxatga olinishi kerak
- B. «Yagona davlat nazorati» axborot tizimida barcha biznes tekshiruvlari ro'yxatga olinishi kerak
- C. «Yagona davlat nazorati» axborot tizimida ro'yxatga olinmagan biznes tekshiruvlari noqonuniy hisoblanadi
- D. tadbirkorlik subyektlarini tekshirish natijalari «Yagona davlat nazorati» axborot tizimida ro'yxatga olinmaydi

27-savol

Tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlariga nisbatan quyida keltirilgan fikrlardan qaysilari to'g'ri?

- A. tekshirilayotgan biznes subyektlari tekshiruvchilardan tekshiruv o'tkazish uchun asos hisoblanadigan hujjatlarni talab qilishga haqli
- B. tekshirilayotgan biznes subyektlari advokat yoki boshqa qonuniy vakil kelguniga qadar 48 soat mobaynida tekshiruvchilarni tekshiruv obyekti hududiga kiritmaslikka haqli
- C. tekshirilayotgan biznes subyektlari bosh buxgalter kasalligi tufayli yo'q bo'lganda so'ralgan moliyaviy hujjatlarni taqdim etishni rad etishga haqli
- D. tekshirilayotgan biznes subyektlari oldingi tekshiruvda soliq xizmatiga tasdiqlangan ko'chirma nusxalar shaklida taqdim etgan hujjatlarni takroran taqdim etmaslikka haqli

28-savol

Sayyor tekshiruv boshlanishidan oldin soliq inspektorlari belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan buyruqni taqdim etdilar, direktorga tekshiruvda ishtirok etish uchun yurist yoki advokatni jalb qilish huquqi tushuntirildi. Direktorning advokat xizmatlaridan voz kechishiga qaramay, sayyor tekshiruv

boshlandi. Ilgari korxonaga rejalashtirilgan sayyor tekshiruv to'g'risida xabarnoma yuborilmagan. Soliq inspektorlari:

- tekshiruv tugaganidan so'ng tekshiruv Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olinishini ko'rsatdilar;
- ularga ma'lum bo'lgan tijorat sirini oshkor qilmaslik to'g'risidagi kelishuvni imzolashdan bosh tortdilar.

Tekshiruvchilar qanday huquqbuzarlikka yo'l qo'yishdi?

- A. tekshiruvchilar, hatto direktor advokat xizmatlaridan voz kechganligiga qaramay, faqat yuridik xizmat yoki advokat vakilini tekshiruvga jalb qilgandan keyin tekshiruvni boshlashi mumkin
- B. sayyor tekshiruv boshlanishidan oldin soliq organi tekshiruv sanasi va obyektni ko'rsatgan holda rejalashtirilgan tekshiruv to'g'risida xabarnoma yuborishi shart
- C. tekshiruv boshlanishidan oldin u Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olinishi kerak
- D. tekshiruvchilar tijorat sirini oshkor qilmaslik to'g'risidagi kelishuvni imzolashlari shart

29-savol

Kompaniya bosh buxgalteri o'z harakatlari bilan kompaniyaga zarar yetkazdi. Tovarlarni sotishdan olingan daromadlarni noto'g'ri hisobga olish natijasida kompaniya Soliq kodeksining 223-moddasi «Soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish)» bo'yicha jarimaga tortildi. Bosh buxgalter o'z aybini tan olishdan bosh tortdi va sud da'vosidan xavotirlanib, kvartira, avtomobil va dalahovlisini qarindoshiga sovg'a qildi. Bosh buxgalterga nisbatan zararning o'rnini qoplash va mol-mulkni sovg'a qilish to'g'risidagi bitimni o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'voni ko'rib chiqayotgan sudning ehtimoliy qaroriga nisbatan quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. sud deliktini tan oladi, ammo hadya qilish bitimini o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishni rad etadi, chunki u bunday delikt bo'yicha zararni undirish to'g'risidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirish sanasiga qadar amalga oshirilgan
- B. sud deliktini tan olmaydi, chunki bosh buxgalterni nazorat qilishi shart bo'lgan kompaniya rahbari javobgar bo'ladi va hadya qilish bitimini o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishni rad etadi
- C. sud deliktini tan oladi, shuningdek hadya qilish bitimini o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topadi, chunki zararning o'rnini qoplash majburiyati zarar yetkazilgan paytdan boshlab yuzaga keladi
- D. sud deliktini tan olmaydi, chunki bosh buxgalterning ish haqidan ushlanmalar ish haqining 50 %dan oshib ketadi, bu esa Mehnat kodeksiga zid

30-savol

«A» kompaniyasi «B» kompaniyasidan tovarni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib oldi. Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar tufayli «A» kompaniyasi qarzni «C» kompaniyasiga o'tkazmoqchi, «B» kompaniyasi esa o'zining qarz talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqini «D» kompaniyasiga bermiqchi. Quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. qarzni «C» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasi «B» kompaniyasining roziligini olishi kerak, «C» kompaniyasi esa talab qilish huquqini «D» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasining roziligini olishi shart emas

- B. qarzni «C» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasi «B» kompaniyasini xabardor qilishi kerak, «C» kompaniyasi esa talab qilish huquqini «D» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasining roziligini olishi kerak
- C. qarzni «C» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasi «B» kompaniyasining roziligini olishi kerak, «C» kompaniyasi ham talab qilish huquqini «D» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasining roziligini olishi kerak
- D. qarzni «C» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasi «B» kompaniyasining roziligini olishi shart emas, «C» kompaniyasi ham talab qilish huquqini «D» kompaniyasiga o'tkazish uchun «A» kompaniyasining roziligini olishi shart emas

31-savol

Kontragentni tanlashda lozim darajada ehtiyotkorlikning maqsadini qaysi javob eng aniq tarzda aks ettiradi?

- A. salbiy soliq oqibatlari xatarlarisiz kontragent bilan shartnoma tuzish mumkinligiga ishonch hosil qilish
- B. insofsiz tashkilot bilan shartnoma tuzishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi qonunchilik talabini bajarish
- C. kontragent insofli tashkilot ekanligiga va barcha soliqlarni o'z vaqtida to'lashiga ishonch hosil qilish
- D. bitimni amalga oshirishga sarflanadigan vaqtni qisqartiradi, chunki kontragent insofli yetkazib beruvchi hisoblanadi

32-savol

«A» kompaniyasining direktori antiseptik vositalar yetkazib beruvchisini saralab olishda «B» kompaniyasining direktori bilan tovarni oshirilgan narxlarda sotib olish bo'yicha bitim tuzdi. Bitim sharti qonuniy yoki shartnomaviy asoslarda nazarda tutilmagan, shartnoma umumiy summasining 5 foizi miqdorida shaxsiy mukofot olish bo'lgan. Natijada tomonlar o'rtasida «A» kompaniyasi uchun noqulay shartlarda (narx 15%ga oshirilgan) shartnoma tuzildi. «A» va «B» kompaniyalari o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so'ng «A» kompaniyasining direktori shartlashilgan noqonuniy shaxsiy mukofotni olmadi. Bir muddat o'tgach, «A» kompaniyasi muassislariga direktorning g'ayriqonuniy harakatlari ma'lum bo'lib qoldi. Ushbu bitim to'g'risida quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. bir tomon vakilining boshqa tomon bilan yovuz niyatdagi kelishuvi ta'sirida tuzilgan bitim jabrlangan tomonning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin
- B. bitim qonuniy hisoblanadi, chunki til biriktirgan ishtirokchilar («A» va «B» kompaniyalari xodimlari) uni amalga oshirishdan biron-bir moddiy naf olmadilar. Bunda ko'rsatilgan shaxslar tegishincha firibgarlik va tijoratda pora evaziga og'dirib olishga suiqasd qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Keltirilgan zarar summasi sud tomonidan solidar fuqarolik tartibida til biriktirgan ishtirokchilardan undirilishi mumkin
- C. bunday til biriktirish ishtirokchisi bitimni tuzishdan biron-bir naf olmagan va shu bois u haqiqiy emas deb topilmasligi kerak

- D. sud bitimni haqiqiy emas deb topgan taqdirda, bitim tomonlaridan har biri («A» va «B» kompaniyalari) boshqa tomonga bitim bo'yicha olingan hamma narsani qaytarishga majbur bo'ladi, olinganni natura holida qaytarish imkoni bo'lmagan taqdirda – uning qiymatini pulda to'lashi shart

33-savol

Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish oqibatlariga nisbatan quyida keltirilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. shartnoma o'zgartirilganda taraflarning majburiyatlari o'zgartirilgan holda saqlanib qoladi, bekor qilinganda esa – to'xtatiladi
- B. taraflar shartnoma o'zgartirilgan paytga qadar majburiyat bo'yicha o'zlari bajargan narsalar qaytarilishini talab qilishga haqli
- C. shartnoma sud tartibida o'zgartirilganda yoki bekor qilinganda majburiyatlar sudga murojaat qilgan paytdan boshlab o'zgartirilgan yoki to'xtatilgan hisoblanadi
- D. agar bir tomon shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarini bajarsa, boshqa tomon shartnomani o'zgartirishni taklif qilishga haqli emas

34-savol

Kompaniya o'z xodimiga sotuvchilardan tovarlarni qabul qilish imkonini beruvchi ishonchnoma rasmiylashtirdi. Ishonchnomada amal qilish muddati ko'rsatilmagan. Ishonchnoma qanday davr davomida haqiqiy hisoblanadi?

- A. u berilgan kundan boshlab olti oy davomida
- B. u berilgan kundan boshlab bir yil davomida
- C. u berilgan kundan boshlab uch yil davomida
- D. ishonchnomani bergan shaxs bekor qilgunga qadar muddatsiz

35-savol

Qanday hollarda xaridorning yetkazib berish shartnomasini bajarishdan bir tomonlama voz kechishiga yo'l qo'yiladi?

- A. yetkazib beruvchi tovarlarni yetkazib berish muddatlarini bir necha marta buzganda
- B. yetkazib beruvchi tovardagi kamchiliklarni bartaraf etish xarajatlarini qoplamaganda
- C. yetkazib beruvchi xaridor uchun maqbul bo'lgan muddatda bartaraf etib bo'lmaydigan kamchiliklari bo'lgan sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlarni yetkazib berganda
- D. yetkazib beruvchi sifati lozim darajada bo'lmagan tovar uchun sotib olish narxini mutanosib ravishda kamaytirishdan bosh tortganda

36-savol

Shartnomada shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasini sifatida nimani nazarda tutish mumkin emas?

- A. neustoyka (jarima, penya)
- B. boshqa shaxsning pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar to'lash
- C. mol-mulkni xatlash
- D. zararlarning o'rnini qoplash

37-savol

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari qo'shimcha hissalar hisobidan jamiyatning ustav fondini ko'paytirdilar. Ushbu hissalar MChJ uchun moliyalashtirishning qaysi manbasiga taalluqli ekanligini aniqlang.

- A. o'z mablag'lari
- B. qarz mablag'lari
- C. investitsiyalarni moliyalashtirish
- D. venchur moliyalashtirish

38-savol

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qildi. Quyida keltirilgan qoidalardan qaysi biri to'g'ri?

- A. dividendlar foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab da'vo muddati – 3 yil ichida to'lanishi kerak, da'vo muddati tugagandan so'ng dividendlar to'lanmagan taqdirda, dividendlarni olish huquqi yo'qoladi
- B. dividendlar foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 kun ichida to'lanishi kerak, ushbu muddat o'tgach ishtirokchi da'vo muddati davomida dividendlar to'lanishini talab qilishga haqli
- C. dividendlar foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 kun ichida to'lanishi kerak, ushbu muddat o'tkazib yuborilgan taqdirda kompaniya jarima to'laydi
- D. dividendlar foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab da'vo muddati – 3 yil ichida to'lanishi kerak, ushbu muddat o'tkazib yuborilgan taqdirda kompaniya jarima to'laydi

39-savol

Quyida keltirilganlardan nima ish beruvchining asosiy majburiyatlariga kiradi? Barcha to'g'ri javoblarni tanlang.

- A. mehnat shartnomalarini «Yagona milliy mehnat tizimi»da o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazish
- B. vijdonan samarali mehnat qilganlik uchun xodimlarni rag'batlantirish
- C. xodimlarni birlashish huquqi to'g'risida xabardor qilish
- D. jamoaviy muzokaralarni olib borish va jamoa shartnomalarini tuzish

40-savol

Qanday mehnat shartnomalarida mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda neustoyka to'lash haqida tomonlarning o'zaro majburiyatlari nazarda tutilishi mumkin?

- A. har qanday mehnat shartnomasida
- B. har qanday muddatli mehnat shartnomasida
- C. nomuayyan muddatga tuzilgan har qanday mehnat shartnomasida
- D. vaqtinchalik ishlarni bajarish vaqti uchun tuzilgan mehnat shartnomasida

41-savol

«A» kompaniyasi jismoniy shaxs bilan soliq masalalari bo'yicha maslahat berish to'g'risida shartnoma tuzdi. Shartnomada quyidagi shartlar belgilangan: to'lov maslahat berish soniga qarab har oyda amalga oshiriladi; ish vaqti rejimi 9:00 dan 15:00 gacha belgilangan; kompaniya ish uchun ofis texnikasi bilan jihozlangan ish joyini taqdim etadi; har yilgi ta'til – 21 kun; ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini solishtirish ikkala tomon imzolaydigan dalolatnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnomada ko'rsatilgan va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomani mehnat shartnomasiga qayta malakalashga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan barcha shartlarni sanab o'ting.

- A. har oylik to'lov; ish vaqti rejimi; ish joyini taqdim etish
- B. ish vaqti rejimi; har yilgi ta'til; ko'rsatilgan xizmatlarni dalolatnoma bilan solishtirish
- C. har oylik to'lov; ish joyini taqdim etish; ko'rsatilgan xizmatlarni dalolatnoma bilan solishtirish
- D. ish vaqti rejimi; ish joyini taqdim etish; har yilgi ta'til

42-savol

Homilador ayollar va ikki yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan ayollarni boshqa ishga vaqtincha o'tkazish to'g'risida buyruq chiqarish uchun nima asos hisoblanadi?

- A. xodimning arizasi va tibbiy xulosa
- B. ish beruvchining tashabbusi va tibbiy xulosa
- C. tegishli boshliqning bildirgisi va tibbiy xulosa
- D. ishlab chiqarish zaruriyati yoki bekor turib qolish holati mavjudligi

43-savol

«A» kompaniyasi direktor bilan 1 yillik sinov muddati va bosh buxgalter bilan 6 oylik sinov muddati bilan mehnat shartnomalari tuzdi. «B» kompaniyasi direktor va bosh buxgalter bilan ikkalasi uchun 6 oylik sinov muddati bilan mehnat shartnomalari tuzdi. «C» kompaniyasi direktor bilan 5 oylik sinov muddati va bosh buxgalter bilan 2 oylik sinov muddati bilan mehnat shartnomalari tuzdi. Qaysi kompaniyalar sinov muddati bo'yicha talablarni buzmagani?

- A. «A» va «B» kompaniyalari
- B. «A» va «C» kompaniyalari
- C. «B» va «C» kompaniyalari
- D. «A», «B» va «C» kompaniyalari

44-savol

Quyida keltirilganlardan nima xodimning ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lashga bo'lgan huquqini buzadi?

- A. ish vaqtidan tashqari ish uchun kamida ikki hissa miqdorida yoki jamoa shartnomasi yoxud korxonaning ichki hujjatiga muvofiq undan ko'proq miqdorda haq to'lanadi
- B. xodimning xohishiga ko'ra ish vaqtidan tashqari ish uchun oshirilgan haq to'lash o'rniga ish vaqtidan tashqari ishlangan vaqt davomiyligiga muvofiq keladigan qo'shimcha dam olish vaqti berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin
- C. qo'shimcha dam olish vaqti berilganda ish vaqtidan tashqari ish uchun bir hissa miqdorida haq to'lanadi, dam olish vaqti uchun esa haq to'lanmaydi
- D. ish beruvchining ixtiyoriga ko'ra ish vaqtidan tashqari ishlangan vaqt davomiyligiga muvofiq keladigan qo'shimcha dam olish vaqti beriladi

45-savol

Quyida keltirilganlardan nima xususiy kompaniya uchun umumiy qoidalar bo'yicha intizomiy jazo choralari kiradi? Barcha to'g'ri javoblarni tanlang.

- A. o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima
- B. egallab turgan lavozimiga to'liq muvofiq kelmaslik
- C. mehnat shartnomasini bekor qilish
- D. ishonchning yo'qolishi

46-savol

Umumiy bo'shatish tartibi tatbiq etiladigan xodim ishdan bo'shashga qarro qildi va 2023 yil 20 iyunda Mehnat kodeksida belgilangan umumiy tartibga muvofiq, ish beruvchini yozma ravishda ogohlantirgan holda, ariza berdi. Agar 28-30 iyun va 1-2 iyul ishlanmaydigan kunlar bo'lsa, ish beruvchi qaysi sanada xodimni ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq chiqarishi kerak va xodim qaysi sanadan boshlab ishdan bo'shatilgan hisoblanadi?

- A. ish beruvchi 4 iyulda xodimni ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq chiqarishi kerak, xodim 5 iyuldan boshlab ishdan bo'shatilgan hisoblanadi
- B. ish beruvchi 3 iyulda xodimni ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq chiqarishi kerak, xodim 4 iyuldan boshlab ishdan bo'shatilgan hisoblanadi
- C. ish beruvchi 10 iyulda xodimni ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq chiqarishi kerak, xodim xuddi shu kundan boshlab ishdan bo'shatilgan hisoblanadi
- D. ish beruvchi 10 iyulda xodimni ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq chiqarishi kerak, xodim 11 iyuldan boshlab ishdan bo'shatilgan hisoblanadi

47-savol

2023 yil avgust oyida Kompaniya xodim ish beruvchi bilan boshqa hududga ko'chib ishlashdan bosh tortganligi sababli u bilan mehnat shartnomasini bekor qiladi. Xodim kompaniyada 2020 yilning boshidan buyon ishlagan. Xodimning o'rtacha oylik ish haqi 8 600 000 so'mni tashkil etdi. Agar ichki hujjatlarda va mehnat shartnomasida to'lovning maxsus tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, kompaniya ishdan bo'shatish chog'ida xodimga qanday miqdorda ishdan bo'shatish nafaqasini to'lashi kerak?

- A. 6 450 000 so'm
- B. 8 600 000 so'm
- C. 12 900 000 so'm
- D. 17 200 000 so'm

48-savol

Kompaniya xodimlarining shaxsga doir ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'lgan direktor hamkasblari bilan suhbatda bo'limlardan birining rahbari sudlanganligi va ushbu sudlanganlikning sabablari haqida xabar berdi. Buning natijasida, xodimlar u bilan muloqot qilishdan bosh tortdilar, shu jumladan ish masalalari bo'yicha ham. Bo'lim boshlig'i ishdan bo'shashga majbur bo'ldi. Sud xodimning shaxsga doir ma'lumotlari oshkor qilinishi natijasida u doimiy ish haqidan mahrum bo'lganligini tan oldi. Shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun direktor uchun qanday huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin?

- A. direktor o'z xodimlarining shaxsga doir ma'lumotlari oshkor etilgan xodim bilan muloqot qilishni istamaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi
- B. direktor xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor qilganlik uchun jarima to'lashi kerak bo'ladi
- C. sud qarori bilan direktor ma'muriy javobgarlikka tortilishi va yo'qotilgan ish haqini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olishi mumkin
- D. direktor ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi, shuningdek yo'qotilgan ish haqini qoplashi mumkin

49-savol

Hakamlik sudi qarori qanday ijro etiladi?

- A. hakamlik sudi tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida majburiy ravishda
- B. qarorda belgilangan tartib va muddatlarda ixtiyoriy ravishda, ijro etilmagan taqdirda esa – ish vakolatli (fuqarolik ishlari bo'yicha yoki iqtisodiy) sudga ko'rib chiqish uchun topshiriladi
- C. qarorda belgilangan tartib va muddatlarda ixtiyoriy ravishda, ijro etilmagan taqdirda esa – vakolatli sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida majburiy ravishda ijro etiladi
- D. ijro varaqasi asosida ma'muriy tartibda majburiy ravishda

50-savol

Sudda buyruq tartibida ishlarni va da'vo ishini yuritishning asosiy farqlari qanday?

- A. buyruq tartibida ishlarni yuritish da'vo ishini yuritishdan farqli ravishda soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi – ish sudya tomonidan yakka tartibda, sud muhokamasi o'tkazilmasdan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmasdan, faqat undiruvchi tomonidan o'z talablarini tasdiqlash uchun taqdim etilgan yozma dalillar asosida ko'rib chiqiladi
- B. buyruq tartibida ishlarni yuritish undiruvchi tomonidan o'z talablarini tasdiqlash uchun taqdim etilgan yozma dalillar asosida huddi da'vo ishini yuritish kabi amalga oshiriladi, bundan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirish mustasno
- C. buyruq tartibida ishlarni yuritish sud muhokamasi o'tkazilmasdan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmasdan, faqat undiruvchi tomonidan o'z talablarini tasdiqlash uchun taqdim etilgan yozma dalillar asosida sudyalarning hay'ati tomonidan soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqiladi
- D. hech qanday farqlar yo'q, buyruq tartibida ishlarni yuritish huddi da'vo ishini yuritish kabi amalga oshiriladi

JAVOBLAR

1-savolga javob

B.

Javobga izoh:

FKning 735-moddasi qoidalari qarz huquqiy munosabatiga nisbatan maxsus me'yor hisoblanadi, bunda FKning 242-moddasi qoidalari dastlabki holatda barcha majburiyat xususiyatidagi huquqiy munosabatlarga nisbatan qonunning umumiy me'yori hisoblanadi. «Lex specialis derogate generali», ya'ni «muayyan huquqiy munosabatga nisbatan maxsus huquq me'yori umumiy me'yorni chiqarib tashlaydi». Shu tariqa, ko'rsatilgan holda Qarz oluvchi qarz summasini to'lashda huquqning maxsus me'yori, ya'ni FKning 735-moddasi qoidalari amal qilish yuzasidan to'liq huquqqa ega.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.1. D-bandiga qarang

2-savolga javob

D.

Javobga izoh:

O'zbekistonda huquqning asosiy manbalari quyidagilardir:

- 1) Me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- 2) Xalqaro shartnomalar va bitimlar;
- 3) Taraflar o'rtasidagi shartnoma (agar qonunchilik talablariga zid bo'lmasa) – shartnoma taraflari uchun;
- 4) Huquqiy odat;
- 5) Huquqning umumiy tamoyillari.

Sud yoki huquqiy pretsedent, shuningdek huquqiy doktrina (olim-huquqshunoslarning huquqning muayyan masalalari bo'yicha ishlari) huquq manbalari hisoblanmaydi. Shu tariqa, sud qaror qabul qilishda sud pretsedentiga amal qilishi shart emas.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.2. A-bandiga qarang

3-savolga javob

D.

Javobga izoh:

Soliqlar va yig'imlar stavkalari Soliq kodeksida belgilanadi va o'zgartiriladi. Soliq kodeksining 4-moddasi 6-qismida belgilanishicha, «Soliqlar va yig'imlar stavkalarining o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, agar ularda kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasman e'lon qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritiladi». Shu tariqa, ko'rsatilgan soliq stavkasining pasaytirilishi tadbirkor uchun SKga o'zgartirishlar kuchga kirgan sanadan boshlab qo'llanilishi mumkin bo'ladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.3. A-bandiga qarang

4-savolga javob

C.

Javobga izoh:

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning (20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son) 18-moddasida belgilanishicha, «teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalarini amal qiladi». Har ikkala ko'rsatilgan NHH teng yuridik kuchga ega ekanligini hisobga olgan holda, soliq to'lovchi vaqt bo'yicha keyinroq qabul qilingan huquq me'yorini qo'llashi shart.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.3. C-bandiga qarang

5-savolga javob

B.

Javobga izoh:

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning (20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son) 40-moddasida belgilanishicha, «Normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi». O'sha qonunning 39-moddasida belgilanishicha, xususan, «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami», «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi», shuningdek vazirliklar va idoralarning rasmiy nashrlari vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir».

lex.uz saytida («Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi») e'lon qilish «Bank axborotnomasi» idoraviy gazetasida nashr etilishidan oldin sodir bo'lganligini inobatga olib, qaror saytda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.3. D-bandiga qarang

6-savolga javob

C.

Javobga izoh:

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning (20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son) 55-moddasi 4-xatboshisida belgilanishicha, «Qonunosti hujjatlari normalariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi». MHHlar iyerarxiyasida (O'RQ-682-son 7-m.) Prezident qarori qonunosti hujjati hisoblanadi. Tegishincha, mazkur holda Prezident qarorini qabul qilgan organ sifatida rasmiy sharh berish huquqiga Prezident egadir. Shu tariqa, Soliq qo'mitasi tomonidan berilgan tushuntirish MHHning rasmiy sharhi hisoblanmaydi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.3.F-bandiga qarang

7-savolga javob

B.

Javobga izoh:

Soliq kodeksidagi huquq me'yoriga havola xatboshining tarkibiy raqami, qismning tartib raqami (agar mavjud bo'lsa) va Kodeks moddasining raqamini o'z ichiga olishi kerak.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.4. B-bandiga qarang

8-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 146-moddasida belgilanishicha, «Vaqt davri bilan belgilangan muddat kalendar sanadan keyingi yoki uning boshlanish kuni deb belgilangan voqea yuz berganidan keyingi kundan o'ta boshlaydi». Shu tariqa, shartnomada belgilangan muddat 2023 yil 1 iyundan o'ta boshlagan va tegishincha, 2023 yil 6 iyunga qadar tugaydi, ya'ni to'lov ushbu sana kelgunga qadar amalga oshirilishi kerak.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 1.6.A-bandiga qarang

9-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Ta'rifga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkor – bu patent asosida yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazmasdan xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs. U «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 29.08.2001 yildagi 258-II-son Qonunning 52-moddasida ko'rsatilgan mol-mulkdan tashqari, o'ziga tegishli bo'lgan barcha mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javob beradi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.1. D-bandiga qarang

10-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 39-moddasiga muvofiq, «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi». Shu tariqa, yuridik shaxsning balansida turgan mol-mulk uning mulki hisoblanadi. Yuridik shaxs muassislari faqat qonun va ustav bilan belgilangan yuridik shaxsga nisbatan korporativ talab qilish huquqlariga ega. Bunda ular uning mol-mulkining mulkdorlari emas.

Yuridik shaxsning xodimlari yuridik shaxs bilan mehnat shartnomasi asosida o'z funktsional majburiyatlarini bajaradilar va yuridik shaxs mulkiga bo'lgan mulkiy huquqlarga ega emas. Agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi o'tkazilgan mahsulot va boshqa TMZga bo'lgan mulk huquqi yuzasidan nizolashish huquqiga ega emas. Shartnoma bo'yicha u faqat yetkazib berilgan mahsulot uchun to'lov amalga oshirilishini talab qilish huquqiga ega (shu jumladan to'lovni kechiktirganlik uchun penya va shartnomadan kelib chiqadigan boshqa huquqlar).

Bunda, qonunda belgilanishicha, masalan, Xususiy korxonaning yagona ishtirokchisi ushbu korxonaning mulkdori sifatida qaralishi kerak. Ammo hatto mazkur holda ham korxona mol-mulkingining mulkdori korxonaning o'zi hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.1.D-bandiga qarang

11-savolga javob

D.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 47-moddasida belgilanishicha, xususan, «Filial yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo'linmasidir.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, vakolatxona va filiallar yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ular o'zlarini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadilar hamda u tasdiqlagan nizomlar asosida ish olib boradilar. Ular o'zlarini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadilar hamda u tasdiqlagan nizomlar asosida ish olib boradilar».

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.2. B-bandiga qarang

12-savolga javob

C. D.

Javobga izoh:

Qonunchilik tijorat tashkiloti faoliyatining maqsadi foyda olish ekanligini belgilaydi. Bunda notijorat tashkiloti (NNT) uchun foyda olishga yo'l qo'yiladi, lekin u faoliyatning asosiy maqsadi bo'lishi mumkin emas. NNT uchun faoliyat maqsadlari ta'lim, ijtimoiy, homiylik va boshqa maqsadlar bo'lishi mumkin, bunda tijorat xizmatlari ko'rsatishga ham yo'l qo'yiladi. Tijorat xizmatlari qismida NNT ham xuddi tijorat tashkiloti kabi tegishli soliqlarni to'lashi shart. Bunda NNTning foydasi muassislar o'rtasida taqsimlanmaydi, balki ustavda belgilangan maqsadlarga yo'naltiriladi.

Tegishincha, NNT bepul ta'lim xizmatlarini ko'rsatishi mumkin, lekin majbur emas va pulli xizmatlar ko'rsatishda ularning tannarxi bilan cheklanmasligi kerak.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, to'g'ri javoblar C va D bo'ladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.2. E-bandiga qarang

13-savolga javob

D.

Javobga izoh:

«Mansabdor shaxs» va «Ijro etuvchi organ» atamallari o'rtasidagi farqni anglash kerak. Mansabdor shaxs – bu tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik funktsiyalarini bajarish bilan bog'liq lavozimlarni egallagan va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hamda yuridik oqibatlarga olib keladigan qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan huquqiy munosabatlarning maxsus subyekti. Yuridik shaxs faoliyati doirasida yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarga javob beradigan har qanday shaxs Mansabdor shaxs bo'lishi mumkin.

Bunda Ijro etuvchi organ (yakka boshchilik asosida yoki kollegial) faqat qonun yoki yuridik shaxsning ustavida aniq nomi ko'rsatilgan va rahbarlik funktsiyalarini amalga oshirish va ishonchnomasiz yuridik shaxs manfaatlarini ifodalash uchun qonuniy huquqqa ega bo'lgan subyekt bo'lishi mumkin. Amaliyotda ijro etuvchi organ ko'pincha Direktor (Bosh direktor) yoki Boshqaruv tomonidan ifodalanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.2. G-bandiga qarang

14-savolga javob

B.

Javobga izoh:

21.08.2019 yildagi 704-son VMQga 1-ilova «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi nizom»ning 24-bandiga muvofiq, qarzni to'lash tartibi b) kichik bandida ko'rsatilganiga muvofiq bo'ladi, ya'ni mehnatga oid munosabatlar, alimentlar, mualliflik haqi, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar, keyin soliqlar, so'ngra boshqa kreditorlarning talablari.

Shuni ham inobatga olish lozimki, qarzlarni so'ndirish navbati, masalan, To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi Qonun va Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi Qonun kabi boshqa huquqiy hujjatlarda ham belgilangan. Ko'rsatilgan qonunlar qoidalarini qo'llashdagi ustuvorlik muayyan ishning bevosita vaziyatlariga bog'liq.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.2. L-bandiga qarang

15-savolga javob

A. B. D.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 39-moddasi yuridik shaxs tushunchasini belgilashda, xususan, yuridik shaxslar mulk huquqi asosida ularga tegishli bo'lgan mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javob berishini belgilaydi (A-javobi).

Fuqarolik kodeksining 48-moddasi 3-xatboshisida belgilanishicha, «Yuridik shaxs muassisi (ishtirokchisi) yoki uning mol-mulkining egasi yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, yuridik shaxs esa muassis (ishtirokchi) yoki mulkdorning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, ushbu Kodeksda yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno» (B-javobi).

Fuqarolik kodeksining 48-moddasi 4-xatboshisida belgilanishicha: «Agar yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin» (d-javobi)). Fuqarolik kodeksining 14-bobiga muvofiq, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlari jismoniy shaxslar uchun xos emas va yuridik shaxslarning faoliyati bilan bog'liq. Shu tariqa, garchi jismoniy shaxs shubhasiz o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javob bersa-da (qonunda to'g'ridan-to'g'ri belgilangan cheklovlar bundan mustasno), jismoniy shaxs xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi asosidagi mol-mulk bilan javob berishi mumkin emas (C-javobi).

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.2. D, 3.1. A-bandlariga qarang

16-savolga javob

B. C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 50-moddasi qoidalariga amal qilgan holda, A va B kompaniyalari qo'shib yuborilganda (a-varianti)) ikkala kompaniyaning faoliyati tugatilib, uchinchi shaxs tashkil etilishini va u keyinchalik faoliyat yuritishini aniqlash mumkin.

A kompaniyasini B kompaniyasiga birlashtirilganda (B-varianti) faqat A kompaniyasining faoliyati tugatiladi, B kompaniyasi esa o'z faoliyatini davom ettiradi.

A kompaniyasi B va C kompaniyalariga bo'linganda (C-varianti) bitta A kompaniyasining faoliyati tugatiladi, bu topshiriq shartiga muvofiq keladi.

A kompaniyasi qayta tuzilganda, ya'ni tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganda (d-varianti)), haqiqatda kompaniya o'z faoliyatini davom ettiradi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 2.2. I-bandiga qarang

17-savolga javob

B.

Javobga izoh:

FKning 386-moddasi 1-xatboshisiga muvofiq, «Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyatini oladi».

Tovarning sotib oluvchi mulkiga o'tish payti FKning 390-moddasida, agar qonunda (masalan, avtomobillar yoki ko'chmas mulk uchun) yoki shartnomada (sotuvchi tovarga bo'lgan mulk huquqini to'lov paytigacha saqlab qolishi belgilangan bo'lsa) boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, tovar sotib oluvchiga topshirilgan yoki sotib oluvchi tasarrufiga berilgan payt sifatida belgilangan. Oldi-sotdi shartnomasidan sotuvchining tovarni yetkazib berish yoki sotib oluvchiga tovarni uning turgan joyida

topshirish majburiyati kelib chiqmaydigan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sotuvchining tovarni sotib oluvchiga topshirish majburiyati tovar tashuvchiga yoki sotib oluvchiga jo'natish uchun aloqa tashkilotiga topshirilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

Shu tariqa, mazkur holda Sotib oluvchi 25 iyulda xom ashyoning mulkdoriga aylandi, Sotuvchida esa faqat shartnomada belgilangan narxni talab qilish huquqi qoldi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 3.1. E-bandiga qarang

18-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 481-moddasida belgilanishicha, ko'chmas mulkni sotish shartnomasi bo'yicha ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqining sotib oluvchiga o'tishi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Mulk huquqining o'tishi davlat ro'yxatidan o'tkazilguniga qadar ko'chmas mulkni sotish shartnomasining taraflar tomonidan bajarilishi ularning uchinchi shaxslar bilan munosabatlarini o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi.

Shu tariqa, huquqiy nuqtai nazardan sotib oluvchining ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan mulk huquqi faqat davlat kadastr organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng yuzaga keldi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 3.2. E-bandiga qarang

19-savolga javob

B.

Javobga izoh:

Topshiriqda A kompaniyasi qanday aktsiyalarni sotib olgani ko'rsatilmagan. Qat'iy belgilangan foizli daromad olish (A-varianti) faqat imtiyozli aktsiyalarning muayyan turiga kafolatlanishi mumkin, bu haqda shartda hech narsa aytilmagan. Oddiy aktsiyalar esa kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlariga qarab daromad keltirishi ham, keltirmasligi ham mumkin.

Aktsiya saqlovchisining daromadi kompaniya foydasiga bevosita bog'liq bo'lmisligi mumkin (C-varianti), agar sotib olingan aktsiyalar imtiyozli bo'lsa.

Imtiyozli aktsiyalar saqlovchisi kompaniya siyosatini belgilash (D-varianti) va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatidan mahrum, uning huquqlari faqat qat'iy belgilangan dividendlarni olish bilan cheklangan. Topshiriqning shartlariga eng yaqin b-varianti) bo'lib, unda kompaniyaning kapitalidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi haqida so'z yuritiladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 3.2. F-bandiga qarang

20-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Intellektual mulk obyektiga mutlaq bo'lmagan mulkiy huquqlarni shartnoma asosida berish holati litsenziatga ko'rsatilgan obyektни tasarruf etish huquqini bermaydi. Shartnomada faqat foydalanish huquqi ko'rsatilishi mumkin.

Bundan cheklangan tasarruf etish huquqi (boshqa foydalanuvchilarga berish) litsenziya shartnomasida ko'rsatilishi mumkin. Shu tariqa, to'g'ri javob – C).

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 3.3. C-bandiga qarang

21-savolga javob

B.

Javobga izoh:

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi 25.05.2000 yildagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi 69-II-son Qonunning 3-moddasida «tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat» sifatida ta'riflanadi. Bunda shunga o'xshash faoliyatning asosiy belgilaridan biri uning tizimli asosda bo'lishidir.

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olib, jismoniy shaxsga qolgan kvartirani realizatsiya qilish tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi, chunki tizimlilik, tavakkal qilish, maxsus subyekt (qonunchilik talablariga muvofiq ro'yxatdan o'tgan tadbirkor) belgilari mavjud emas.

Jismoniy shaxs turli miqdordagi manbalardan daromad olishi mumkin (mehnat munosabatlari, mulkda bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilish, alimentlar va h.k.), ammo bu o'z-o'zidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etmaydi. Mulkni sotish narxining uni sotib olish narxidan yuqori bo'lishi soliq majburiyatlarining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin, ammo o'z-o'zidan tadbirkorlik faoliyati tarkibini hosil qilmaydi.

Yil davomida bittadan ko'p kvartirani realizatsiya qilish jismoniy shaxsning soliq majburiyatlarini o'zgartirishi mumkin, biroq, boshqa belgilarning mavjud emasligi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etmaydi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.1. A-bandiga qarang

22-savolga javob

D.

Javobga izoh:

Soliq kodeksining 36-moddasi 10-qismida belgilanishicha, «agar chet el yuridik shaxsi O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatini vositachilik (topshiriq) shartnomasi yoki shunga o'xshash shartnoma asosida harakat qiluvchi va bitimlarni ushbu chet el yuridik shaxsi nomidan imzolashga vakolatli bo'lmagan mustaqil agent orqali amalga oshirsa» doimiy muassasa yuzaga kelmaydi. Shu tariqa, komissioner norezidentning nomidan shartnomalarni tuzmasligini hisobga olib, hatto faoliyat ketma-ket 12 oylik davr davomida 183 kundan ko'proq davom etsa va filial, bo'linma yoki vakolatxona tashkil etilishidan qat'i nazar, norezidentning DM tashkil etish majburiyati yuzaga kelmaydi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.2. D-bandiga qarang

23-savolga javob

C.

Javobga izoh:

«Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'RQ-310-II-son Qonunning 15-moddasi 2-xatboshisida belgilanishicha, «Jamiyatning ishtirokchilari va jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi».

Jamiyat ishtirokchisi yagona ekanligini hisobga olib, u kiritilayotgan pulsiz mol-mulkni baholashni o'z qarori bilan amalga oshiradi. Shu tariqa, qonun harfiga rioya qilgan holda, jamiyatning ustav fondini 250 mln. so'm miqdorida ko'paytirish qonuniy bo'ladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.3. A-bandiga qarang

24-savolga javob

A. D.

Javobga izoh:

O'zbekiston Respublikasida qonunchilik talablariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik jamiyati, ishtirokchilari tarkibi va maqomidan qat'i nazar, soliq rezidenti hisoblanadi. Bunda mavjud ustav fondiga qo'shimcha ravishda qo'shimcha kapital jalb qilish, tabiiy ravishda, ustav kapitalining ko'payishiga olib keladi.

«Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'RQ-310-II-son Qonunning 18-moddasi qoidalariga amal qilgan holda, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar hisobidan ustav kapitali ko'paytirilganda, ishtirokchilarning ulushlari ustav kapitalidagi hissalariga mutanosib ravishda o'zgarishi kerak. Shu tariqa, to'g'ri javoblar a) va d).

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.3. B-bandiga qarang

25-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Ushbu vaziyatda elektron raqamli imzo muayyan mansab vazifalarini (yuridik shaxs direktori) bajaruvchi muayyan jismoniy shaxsga berilgan. Tegishincha, direktor almashganda, avvalgi ERI bekor qilinishi va yuridik shaxsga yangi ERI berilishi lozim. «Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.4. E-bandiga qarang

26-savolga javob

A. C.

Javobga izoh:

13.09.2022 yildagi PQ-374-son qarorning 2-bandiga muvofiq, «tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar «Yagona davlat nazorati» axborot tizimida ro'yxatga olinadi. Bunda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida mazkur tizimda ro'yxatga olinmagan tekshiruvlarni o'tkazish noqonuniy hisoblanadi». Tegishincha, B va C javoblari to'g'ri hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.6. D-bandiga qarang

27-savolga javob

A. D.

Javobga izoh:

Soliq tekshiruvini o'tkazishda taraflar Soliq kodeksining 17-bobi va 07.01.2021 yildagi 1-son VMQga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom»ga amal qilishlari kerak.

Ushbu hujjatlarda tekshiruv boshlanishidan oldin tekshiruvchilar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati belgilangan. Tekshiriluvchi tekshiruvchilardan qonunda ko'rsatilgan hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Advokat yoki boshqa qonuniy vakilning ishtiroki tekshiriluvchining huquqi bo'lib, u bundan voz kechishi mumkin. Advokatning yo'qligi tekshiruvchilarni tekshiruv o'tkazishga yo'l qo'ymaslik uchun asos bo'lmaydi. Biroq, qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida tadbirkorlik subyekti tekshirilayotganda, agar tadbirkorlik subyekti advokat jalb qilish niyatini bildirsa, advokat kelgunga qadar tekshiruv boshlanishi yigirma to'rt soatga to'xtatiladi. Yigirma to'rt soat o'tgach advokat tadbirkorlik subyektini himoya qilishga kirishmagan taqdirda, tekshiruv uning ishtirokisiz boshlanadi. (Qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishda advokatlarning majburiy ishtirokini ta'minlash tartibi to'g'risida nizom 3-b., 28.01.2016 y. AV ro'yxat raqami 2757-son)

Soliq kodeksining 146-moddasi talab qilingan hujjatlar talabnoma taqdim etilgan sanadan boshlab 5 kun ichida soliq organiga taqdim etilishi lozimligini (soliq organi tomonidan bu muddat uzaytirilishi mumkin) belgilaydi. Bosh buxgalterning kasalligi axborot taqdim etishni rad etish uchun asos bo'lmaydi.

Soliq kodeksining 146-moddasi 11-qismida belgilanishicha «Soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari jarayonida soliq organlari tekshirilayotgan shaxsning kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilganda soliq organlariga ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek soliq monitoringini o'tkazish jarayonida tasdiqlangan ko'chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas. Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo'lsa, shuningdek soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo'qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin».

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.6. E-bandiga qarang

28-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Advokat yoki boshqa qonuniy vakilning ishtiroki tekshiriluvchining huquqi bo'lib, u bundan voz kechishi mumkin. Advokatning yo'qligi tekshiruvchilarni tekshiruv o'tkazishga yo'l qo'ymaslik uchun asos bo'lmaydi. Biroq, qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida tadbirkorlik subyekti tekshirilayotganda, agar tadbirkorlik subyekti advokat jalb qilish niyatini bildirsa, advokat kelgunga qadar tekshiruv boshlanishi yigirma to'rt soatga to'xtatiladi. Yigirma to'rt soat o'tgach advokat tadbirkorlik subyektini himoya qilishga kirishmasa, tekshiruv uning ishtirokisiz boshlanadi. (Qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishda advokatlarning majburiy ishtirokini ta'minlash tartibi to'g'risida nizom 3-b., 28.01.2016 y. AV ro'yxat raqami 2757-son)

Sayyor soliq tekshiruvi 07.01.2021 yildagi 1-son VMQga 2-ilova «Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom»ning 5-bobi bilan tartibga solinadi, unda soliq to'lovchiga rejalashtirilgan tekshiruv to'g'risida xabarnoma yuborish va tijorat sirini oshkor qilmaslik to'g'risidagi kelishuvni imzolash zarurligi to'g'risidagi talab mavjud emas.

Yuqorida ko'rsatilgan MHHning 9-bandida belgilanishicha, «Sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda amalga oshiriladi, davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni tekshirish bundan mustasno. Soliq to'lovchilarda o'tkazilgan tekshiruv natijalari soliq organlari tomonidan tekshiruv tugatilganidan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi».

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 4.7. A-bandiga qarang

29-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 8-moddasi 2-xatboshisida belgilanishicha, xususan, «Fuqarolik huquq va majburiyatlari ... boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida» vujudga keladi. Tegishincha, zarar yetkazilgan paytda shaxsning uni qoplashni talab qilish huquqi vujudga keladi.

Fuqarolik kodeksining 985-moddasida belgilanishicha «G'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim».

Bunda Fuqarolik kodeksining 1001-moddasida belgilanishicha, «Boshqa shaxs (mehnat majburiyatlarini bajarayotgan xodim, transport vositasini boshqaruvchi shaxs va h.k) tomonidan yetkazilgan zararni to'lagan shaxs bu shaxsga nisbatan, agar qonunda boshqacha miqdor belgilanmagan bo'lsa, to'langan tovon miqdorida qayta talab qilish (regress) huquqiga ega».

Shu tariqa, yuridik shaxs bosh buxgalter tomonidan yetkazilgan zararni yetkazilgan zarar miqdorida regress tartibida kompensatsiya qilishni talab qilish huquqiga ega.

Sud Fuqarolik kodeksining tegishli qoidalariga amal qilgan holda, hadya shartnomasini o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topishi mumkin.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.1. C-bandiga qarang

30-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 319-moddasida talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish uchun qarzdorning roziligi faqat « kreditorning shaxsi qarzdor uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan» hollarda majburiy ekanligi belgilangan. Fuqarolik kodeksining 322-moddasida esa «Qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi» deyilgan.

Shu tariqa, bu holda a) varianti qonuniy hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.1. E-bandiga qarang

31-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Soliq kodeksining 15-moddasi 2-qismida belgilanishicha, «Soliq to'lovchi tomonidan uning oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha qilingan xarajatlar (ko'rilgan zararlar), agar ushbu soliq to'lovchi bitim tuzayotganda lozim darajada ehtiyotkorlik qilmagan bo'lsa, soliq solish maqsadida tan olinmaydi».

Shu tariqa, kontragentni tanlashda lozim darajada ehtiyotkorlik maqsadi yuridik shaxs uchun salbiy soliq oqibatlaridan qochish hisoblanadi.

Shu tariqa, mazkur holda A varianti to'g'ri hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.2. E-bandiga qarang

32-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 123-moddasida tomonlar vakillarining yovuz niyatli kelishuvi ta'sirida tuzilgan bitimni aniqlash holatida harakatlar tartibi quyidagicha belgilangan: «Aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi ta'sirida tuzilgan bitim, shuningdek fuqaro og'ir holatlar yuz berishi tufayli o'zi uchun o'ta noqulay shartlar bilan tuzishga majbur bo'lgan, ikkinchi taraf esa bundan foydalanib qolgan bitim (asoratli bitim) jabrlanuvchining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin».

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.3. D-bandiga qarang

33-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 28-bobi shartnomani o'zgartirish va bekor qilish asoslari va tartibini belgilaydi. Bunda a) bandida bayon qilingan fikr to'g'ri hisoblanadi (Fuqarolik kodeksining 385-moddasi).

385-moddaning 4-xatboshisida belgilanishicha, «Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, taraflar shartnoma o'zgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat bo'yicha o'zlari bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar».

Mazkur moddaning 3-xatboshisida belgilanishicha, shuningdek «shartnoma sud tartibida o'zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa – sudning shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab».

Fuqarolik kodeksining 382 va 383-moddalari, shuningdek, kontragent shartnoma bo'yicha o'zining barcha majburiyatlarini bajarayotgan hollarda ham tomon shartnomani o'zgartirishni taklif qilish huquqiga ega ekanligini belgilaydi. Shunga o'xshash holat qonun yoki shartnomada to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollarda, shuningdek birinchi tomon uchun holatlarning jiddiy o'zgarishi holatida, Fuqarolik kodeksining 383-moddasi 3-xatboshisida bayon etilgan shartlar bir vaqtning o'zida ro'y berganda sodir bo'lishi mumkin.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.4.C-bandiga qarang

34-savolga javob

B.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 139-moddasida belgilanishicha, xususan, «Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi».

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.5. C-bandiga qarang

35-savolga javob

A.C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksining 455-moddasida belgilanishicha, xususan, «Mahsulot yetkazib berish shartnomasini bajarishdan bir tomonlama (to'liq yoki qisman) bosh tortishga taraflarning biri shartnomani jiddiy buzgan taqdirda yo'l qo'yiladi».

Xaridor uchun yetkazib beruvchining jiddiy buzishi «tegishli darajada sifatli bo'lmagan, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo'lmaydigan kamchiliklarga ega bo'lgan tovarlarni yetkazib berish; tovarlarni yetkazib berish muddatlarini bir necha bor buzish» hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.6. A-bandiga qarang

36-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Fuqarolik kodeksida neustoyka to'lash tarzidagi javobgarlik chorasi FKning 260-moddasida (majburiyatni ta'minlash shakli sifatida) belgilangan.

Boshqa shaxsning pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar to'lash Fuqarolik kodeksining 327-moddasida belgilangan.

Zararlarning o'rnini qoplash – Fuqarolik kodeksining 324-moddasi.

Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning shartnoma chorasi sifatida qarzdorning mol-mulkini xatlash qonunda nazarda tutilmagan.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 5.7. A-bandiga qarang

37-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Ustav fondiga hissa, shu jumladan qo'shimcha hissa, shaxsning investitsiya faoliyati hisoblanadi.

Ustav fondini yuridik shaxsning o'z mol-mulki (taqsimlanmagan foyda) hisobiga ko'paytirish ustav fondini ko'paytirishda o'z mablag'lari bo'lardi.

Qarz mablag'lari belgilanishiga ko'ra muayyan vaqt ichida qarz beruvchiga qaytarilishi kerak. Shu tariqa, ustav fondiga hissa qarz bo'lishi mumkin emas.

Venchur moliyalashtirish innovatsion istiqbolli loyihalarga investitsiya kiritishdir.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 6.1. A-bandiga qarang

38-savolga javob

B.

Javobga izoh:

«Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi O'RQ-310-II-son Qonunning 25-moddasida belgilanishicha, xususan, «Dividendlarni to'lash muddati va tartibi jamiyatning ustavida yoki ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Bunda dividendlarni to'lash muddati jamiyat ishtirokchilari o'rtasida foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan oshmasligi kerak».

Dividendlarni qonunchilikda belgilangan muddatda to'lamaslik kreditorda da'vo muddati (3 yil) davomida majburiyatni bajarishni talab qilish huquqini vujudga keltiradi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 6.4. A-bandiga qarang

39-savolga javob

A. C. D.

Javobga izoh:

Ish beruvchining majburiyatlari Mehnat kodeksining 25-moddasida belgilangan. Xususan, uning mehnat shartnomalarini YaMMTda ro'yxatdan o'tkazish, xodimlarni ularning birlashish huquqi to'g'risida xabardor qilish, jamoa muzokaralarini olib borish va jamoa shartnomalarini tuzish majburiyati belgilangan.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.1. A-bandiga qarang

40-savolga javob

B. D.

Javobga izoh:

Mehnat kodeksining 159-moddasida belgilanishicha, xususan, «Muddatli mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda ushbu shartnomada taraflarning neustoyka to'lash haqidagi o'zaro majburiyati nazarda tutilishi mumkin bo'lib, unga binoan, agar yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq bo'lmagan asoslar bo'yicha ish beruvchining tashabbusiga ko'ra tugatilgan bo'lsa, ish beruvchi xodimga neustoyka to'laydi, agar yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar xodimning tashabbusiga ko'ra, shuningdek xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq asoslar bo'yicha tugatilgan bo'lsa, xodim ish beruvchiga neustoyka to'laydi».

Mehnat kodeksining 112-moddasida, shuningdek, vaqtinchalik ishlarni bajarish vaqti uchun tuzilgan shartnoma muddatli mehnat shartnomasi hisoblanishi belgilangan.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.3. B-bandiga qarang

41-savolga javob

D.

Javobga izoh:

Har oylik to'lov, ko'rsatilgan xizmatlarni dalolatnoma bilan solishtirish fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomaning o'ziga xos belgilari hisoblanadi. Ish vaqti rejimi, ish joyi taqdim etilishi va har yilgi ta'til Mehnat shartnomasining belgilari hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.3. E-bandiga qarang

42-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Mehnat kodeksining 142-moddasi 3 va 4-xatboshilari homilador ayollar va ikki yoshga to'lmagan bolalari bo'lgan ayollarni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish qoidalarini belgilaydi. O'tkazish uchun xodimning arizasi va tibbiy xulosa taqdim etilishi kerak. «Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.4.B-bandiga qarang

43-savolga javob

C.

Javobga izoh:

Mehnat kodeksining 130-moddasida belgilanishicha, xususan, «Dastlabki sinov muddati uch oydan, tashkilotlarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun esa olti oydan oshmasligi kerak». Shu tariqa, «B» va «C» kompaniyalari mehnat shartnomalarini qonuniy tuzishgan.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.5. A-bandiga qarang

44-savolga javob

D.

Javobga izoh:

Ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash shartlari Mehnat kodeksining 262-moddasida belgilangan. Bunda ikki hissa miqdorida haq o'rniga qo'shimcha dam olish vaqti ish beruvchining ixtiyoriga ko'ra emas, balki xodimning xohishiga ko'ra beriladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.6. C-bandiga qarang

45-savolga javob

A. C.

Javobga izoh:

Intizomiy jazo choralari Mehnat kodeksining 312-moddasida imperativ (majburiy) tartibda belgilangan va egallab turgan lavozimiga to'liq muvofiq bo'lmaslik va ishonchni yo'qotishni o'z ichiga olmaydi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.9. C-bandiga qarang

46-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Mehnat kodeksining 160-moddasida xodim o'z xohishi bilan ishdan bo'shaganda ish beruvchini bo'shatilishidan 14 kalendar kun oldin ogohlantirishi shartligi belgilangan. Mehnat kodeksining 9-moddasida muddatni hisoblash belgilangan kalendar sanadan keyingi kundan e'tiboran boshlanishi belgilangan. Bunda muddatga dam olish kunlari ham kiradi. Tegishincha, muddat 21 iyundan o'ta boshlangan, buyruq oxirgi ish kuni – 4 iyulda chiqarilishi kerak va xodim 5 iyuldan boshlab ishdan bo'shatilgan hisoblanadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.10. A-bandiga qarang

47-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Mehnat kodeksining 173-moddasi 3-qismida, xususan, mazkur ish beruvchida 3 yildan 5 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar uchun ishdan bo'shatish nafaqasi miqdori uning o'rtacha oylik ish haqining 75 foizidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Shu tariqa, xodimga to'lanishi lozim bo'lgan summa 6 450 000 so'mni tashkil qiladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7. 10.C-bandiga qarang

48-savolga javob

D.

Javobga izoh:

Shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash tartibi 2019 yil 2 iyuldagi «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'RQ-547-son Qonun bilan belgilangan. U o'z majburiyatlarini bajarishi sababli oshkor qilgan shaxsga ma'lum bo'lib qolgan shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy oshkor qilganligi uchun ularning qonunda belgilangan javobgarligini nazarda tutadi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 7.11. C-bandiga qarang

49-savolga javob

C.

Javobga izoh:

«Hakamlik sudlari to'g'risida»gi O'RQ-64-son Qonunning 49, 50-moddalarida hakamlik sudining hal qiluv qarori hal qiluv qarorida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ijro etilishi belgilangan. Aks holda majburiy ijro etish vakolatli sud bergan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 8.1. D-bandiga qarang

50-savolga javob

A.

Javobga izoh:

Iqtisodiy protsessual kodeksning 143-moddasida belgilanishicha, xususan, «Sud buyrug'i sudya tomonidan sud muhokamasisiz, kreditor va qarzdorni chaqirtirmasdan, ularning tushuntirishlarini eshitmasdan yakka tartibda beriladi». Sud buyrug'i IPKning 136-138-moddalarida belgilangan tartibda undiruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida beriladi.

Umumiy yurisdiksiya sudlarida sud buyruqlari uchun ham shunga o'xshash tartib-taomil amal qiladi (Fuqarolik protsessual kodeksining 170-177-moddalari).

«Huquq asoslari» o'quv rejasining 8.2. D-bandiga qarang



acfp
Uzbekistan

Association of
Certified Finance
Professionals

B.LW

Ҳуқуқ асослари

2026 йилги имтиҳон намунаси



Мундарижа

САВОЛЛАР	2
ЖАВОБЛАР	18

B.LW Ҳуқуқ асослари

Имтиҳон намунаси

САВОЛЛАР

1-савол

«А» компанияси «В» компанияси билан қарз бериш тўғрисида шартнома тузди. Шартномада тарафлар қарз олувчи қарз суммасини қайтариши лозим бўлган муддатни кўрсатишмади. 1 августда Қарз берувчи ФКнинг 242-моддасига асосланиб, қарзни қайтаришни талаб қилди. Қарз олувчи ФКнинг 735-моддасига асосланиб, бунни амалга оширишдан бош тортмоқда. Ушбу ҳолатда қайси меъёр қўлланилиши керак?

- A. ФК 242-м.
- B. ФК 735-м.
- C. ФК меъёри қарз олувчи томонидан белгиланади
- D. ФК меъёри қарз берувчи томонидан белгиланади

2-савол

Солиқ органининг «А» солиқ тўловчисига нисбатан даъвоси бўйича суд жараёни чоғида солиқ маслаҳатчиси «В» солиқ тўловчиси фойдасига ҳал қилинган шунга ўхшаш вазиятга ҳавола қилди. Судья суд прецедентини инобатга олиши шартми?

- A. ҳа, шарт, чунки суд прецеденти ҳуқуқ манбаларидан бири ҳисобланади
- B. йўқ, шарт эмас, чунки солиқ органи ва солиқ тўловчи ўртасидаги ҳар қандай низо ўзига хосдир
- C. ҳа, шарт, аммо фақат низонинг барча тафсилотлари мос келса
- D. йўқ, шарт эмас, чунки суд прецеденти ҳуқуқ манбаси ҳисобланмайди

3-савол

Ўзбекистон Президентининг 2022 йил 27 январдаги қарорида 2022 йил 1 апрелдан бошлаб чакана савдо ва айрим хизмат турлари соҳасидаги тадбиркорлик субъектлари учун ижтимоий солиқни 1%гача камайтириш назарда тутилган эди. 2022 йил 28 январда қарор расмий манбаларда эълон қилинди. 2022 йил 26 июлдаги қонун билан ушбу имтиёз Солиқ кодексига киритилди. Тадбиркорлар ушбу солиқ имтиёзларини қачон қўллашлари мумкин?

- A. 27 январдан, Президент қарори санасидан
- B. 28 январдан, қарор расмий манбаларда эълон қилинган пайтдан
- C. 26 июлдан, Солиқ кодексига ўзгартиришлар киритиш тўғрисидаги Қонун чиққан санадан
- D. Солиқ кодексига киритилган ўзгартиришлар кучга кирган санадан

4-савол

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йилдаги қарори меъёри Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йилдаги қарори меъёрига зид келмоқда. Солиқ тўловчи қайси меъёрни қўллаши керак?

- A. солиқ тўловчи ўзи учун манфаатлироқ меъёрни қўллайди, чунки барча қарама-қаршиликлар солиқ тўловчининг фойдасига талқин этилади
- B. қарама-қаршиликлар тўлиқ бартараф этилгунга қадар ҳуқуқий меъёр қўлланилмайди
- C. солиқ тўловчи 2023 йилдаги қарор меъёрини қўллайди
- D. солиқ тўловчи 2022 йилдаги қарор меъёрини қўллайди

5-савол

Марказий банк бошқарувининг «Тижорат банкларида касса ишини ташкил этиш, нақд пул ва бошқа қимматликларни инкассация қилишга доир йўриқномага ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги 8/7-сонли қарори:

- 31.03.2023 йилда қабул қилинган;
- Адлия вазирлиги томонидан 27.04.2023 йилда рўйхатга олинган;
- lex.uz сайтида 28.04.2023 йилда эълон қилинган;
- «Банк ахборотномаси» газетасида 2.05.2023 йилда эълон қилинган.

Қарорда кучга кириш муддатлари кўрсатилмаган.

Ушбу қарор қачон кучга киради?

- A. қабул қилингандан кейинги кундан – 1.04.2023 йилдан
- B. lex.uz сайтида эълон қилинган кундан – 28.04.2023 йилдан
- C. Адлия вазирлигида рўйхатга олинган кундан – 27.04.2023 йилдан
- D. «Банк ахборотномаси» газетасида эълон қилинган кундан – 2.05.2023 йилдан

6-савол

Солиқ қўмитасининг сайтида Президент қарори билан берилган солиқ имтиёзларини қўллаш тартиби тўғрисидаги унинг тушунтириши эълон қилинган. Қуйида келтирилган фикрлардан қайси бири тўғри ҳисобланади?

- A. тушунтириш Солиқ қўмитасидан чиққанлиги ва унинг расмий сайтида эълон қилинганлиги сабабли барча солиқ тўловчилар томонидан бажарилиши мажбурийдир
- B. тушунтириш идоравий меъёрий ҳужжат ҳисобланади
- C. тушунтириш меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатнинг расмий талқини ҳисобланмайди
- D. тушунтириш Солиқ қўмитаси томонидан берилган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатнинг расмий талқини ҳисобланади

7-савол

Ўзбекистон Солиқ кодексининг 408-моддасида «Айрим тоифадаги жисмоний шахслар томонидан солиқни ҳисоблаб чиқариш ва тўлашнинг ўзига хос хусусиятлари» меҳнат шартномаси асосида чет элда ёлланиб ишлаётган Ўзбекистон фуқаролари тўғрисида меъёр мавжуд. Ушбу меъёрнинг 408-моддада жойлашган ўрнини кўрсатинг.

- A. 408-модда 2-қисми 5-банди
- B. 408-модда 2-қисми 5-хатбоши
- C. 408-модда 1-қисми 11-хатбоши
- D. 408-модда 11-хатбоши

8-савол

Олди-сотди шартномаси 2023 йил 31 майда имзоланди. Харидор шартнома имзоланганидан кейин 5 календарь кун ичида бўнак тўлашни ўз зиммасига олган. Бўнак қандай муддатда тўланиши керак?

- A. 8 июнгача
- B. 7 июнгача
- C. 6 июнгача
- D. 5 июнгача

9-савол

Компания якка тартибдаги тадбиркор билан қиймати 200 млн сўмлик компьютер дастурини ишлаб чиқишга доир шартнома тузмоқчи. Қайси фикр тўғри?

Иш бажарилмаган тақдирда якка тартибдаги тадбиркор ўз мажбуриятлари бўйича қуйидагича жавоб беради:

- A. ўзининг барча мол-мулки билан, ҳатто унда жисмоний шахс сифатида рўйхатдан ўтказилган бўлса ҳам
- B. бизнесда фойдаланадиган барча мол-мулки билан, шу жумладан ҳисобрақамидаги пуллар билан
- C. жисмоний шахс сифатида унга тегишли бўлган барча мол-мулк билан, бундан қонунда белгиланган рўйхат мустасно
- D. бизнесда фойдаланадиган барча мол-мулки билан, шу жумладан ҳисобрақамидаги пуллар билан, бундан қонунда белгиланган мол-мулк рўйхати мустасно

10-савол

Юридик шахснинг балансида бўлиб-бўлиб тўлаб бериш шарти билан сотиб олинган ва у томонидан маҳсулот ишлаб чиқариш учун фойдаланилаётган хом ашё мавжуд. Унинг мулкдори ким ҳисобланади?

- A. юридик шахснинг муассислари, чунки улар ўз маблағларини юридик шахснинг устав капиталига киритганлар
- B. хом ашёни сотувчи, чунки у ҳали ушбу хом ашё учун барча маблағларни олмаган
- C. балансида хом ашё мавжуд бўлган юридик шахс
- D. юридик шахснинг ходимлари, чунки улар хом ашёдан фойдаланадилар

11-савол

Юридик шахснинг муассислари ҳудудда юридик шахс бўлмаган филиални очишга қарор қилдилар. Филиал нима асосида фаолият юритади?

- A. филиал уни ташкил этган юридик шахснинг устави асосида фаолият юритади
- B. филиал устави асосида
- C. филиални ташкил этган юридик шахснинг муассислари томонидан тасдиқланган низом асосида
- D. филиални ташкил этган юридик шахс томонидан тасдиқланган низом асосида

12-савол

«А» ўқув маркази тижорат ташкилоти, «В» ўқув маркази эса нотижорат ташкилот ҳисобланади. Қуйида келтирилган фикрлардан қайсилари тўғри?

- A. «А» ўқув маркази пулли таълим хизматларини кўрсатишга ҳақли, «В» ўқув маркази эса таълим хизматларини бепул кўрсатиши шарт
- B. «А» ўқув маркази таълим хизматларини кўрсатишдан олинган даромадлардан солиқ тўлайди, «В» ўқув маркази эса – тўламайди, чунки у хизматларни таннархидан юқори бўлмаган нархларда кўрсатиши керак
- C. «А» ўқув маркази фойда олиш мақсадларида, «В» ўқув маркази эса – ижтимоий мақсадларда ташкил этилган
- D. «А» ўқув маркази фойдани муассислар ўртасида тақсимлашга ҳақли, «В» ўқув маркази эса – ҳақли эмас

13-савол

Қуйида санаб ўтилган шахслардан ким юридик шахснинг мансабдор шахси ҳисобланади?

- A. фақат юридик шахснинг директори, чунки бу қонунчиликда назарда тутилган
- B. фақат юридик шахснинг раҳбари ва унинг бош бухгалтери, чунки улар қонунга биноан молия ва хўжалик фаолияти бўйича ҳужжатларни ишончномасиз имзолаш ҳуқуқига эга
- C. директор, бош бухгалтер ва бош юрист
- D. ташкилий-бошқарув, маъмурий-хўжалик вазифаларини бажарувчи ва юридик аҳамиятга эга ҳаракатларни амалга оширишга ваколатли ҳар қандай шахс

14-савол

Муассислар масъулияти чекланган жамият шаклида тузилган зарар кўриб ишлаётган компанияни тугатишга қарор қилдилар. Компания тугатилганда кредиторларга қарз қандай навбатда сўндирилади?

- A. солиқлар, иш ҳақи, алиментлар, бажарилган иш учун якка тартибдаги тадбиркорга бўлган қарз
- B. иш ҳақи, алиментлар, муаллифлик ҳақи, ҳаёт ва соғлиққа етказилган зарар, солиқлар, бошқа кредиторларнинг талаблари
- C. иш ҳақи, солиқлар, бажарилган иш учун якка тартибдаги тадбиркорга бўлган қарз, соғлиққа етказилган зарар учун қоплаш суммалари
- D. соғлиққа етказилган зарар учун қоплаш суммалари, алиментлар, солиқлар, иш ҳақи

15-савол

Мулкдорларнинг мол-мулки тўғрисида қуйида келтирилган фикрлардан қайси бири тўғри?

- A. юридик шахслар мулк ҳуқуқи асосида ўзларига тегишли мол-мулк билан ўз мажбуриятлари бўйича жавоб берадилар
- B. мулкдор ўзи ташкил этган юридик шахсларнинг мажбуриятлари бўйича жавоб бермайди, улар ҳам мулкдорнинг мажбуриятлари бўйича жавоб бермайди, Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно
- C. жисмоний шахслар мулк ҳуқуқи, тўлиқ хўжалик юритиш ёки оператив бошқарув ҳуқуқи асосида ўзларига тегишли мол-мулк билан ўз мажбуриятлари бўйича жавоб берадилар
- D. агар юридик шахснинг банкротлиги иштирокчининг (муассиснинг) ғайриқонуний ҳаракатлари туфайли юзага келган бўлса, иштирокчи (муассис) юридик шахснинг мажбуриятлари бўйича жавоб беради

16-савол

Қайта ташкил этиш шаклларида қайсилари қайта ташкил этилаётган юридик шахслардан фақат биттасининг фаолияти тугашига олиб келади?

- A. «А» компанияси ва «В» компаниясининг қўшиб юборилиши
- B. «А» компаниясининг «В» компаниясига бирлаштирилиши
- C. «А» компаниясининг «В» ва «С» компанияларига бўлиниши
- D. «А» компаниясининг қайта тузилиши

17-савол

«А» компанияси ўз кучи билан олиб кетиш шarti билан «В» компаниясидан зарур хом ашёни сотиб олди. Олди-сотди шартномаси 20 июнда тузилган, хом ашё «А» компаниясининг транспорти билан «В» компаниясининг омборидан 25 июнда олиб кетилган. Шу кўни «В» компанияси электрон ҳисобварақ-фактура тақдим этди, уни «А» компанияси 30 июнда тасдиқлади. Хом ашё учун тўлов 1 июлда тўлиқ амалга оширилди. Агар олди-сотди шартномасида хом ашёга бўлган мулк ҳуқуқини топшириш санаси ҳақида ҳеч нарса айтилмаган бўлса, «А» компанияси қайси санадан бошлаб хом ашёнинг мулкдорига айланган?

- A. 20 июндан
- B. 25 июндан
- C. 30 июндан
- D. 1 июлдан

18-савол

«А» компанияси 15 майда «В» компанияси билан кўчмас мулк объектини сотиб олиш тўғрисида шартнома тузди ва 16 майда тарафлар шартномани нотариусда тасдиқлади. Шартнома бўйича тўлов 20 майда амалга оширилди ва 3 кундан сўнг – 23 майда объектни қабул қилиш-топшириш далолатномаси имзоланди. 21 июнда объект давлат кадастри органларида рўйхатга олинди. А компанияси қайси санадан бошлаб кўчмас мулк объектнинг мулкдори ҳисобланади?

- A. 23 майдан
- B. 16 майдан
- C. 21 июндан
- D. 20 майдан

19-савол

«А» компанияси «В» компаниясининг акцияларини сотиб олди. Қуйида келтирилган ифодалардан қайси бири «А» компаниясига ушбу акцияларга эгалик қилиш берадиган ҳуқуқларни тўлиқроқ акс эттиради?

- A. «А» компанияси «В» компанияси томонидан ҳосил қилинадиган қатъий белгиланган даромадни олиш ҳуқуқини олди
- B. «А» компанияси «В» компанияси капиталидаги улушга бўлган мулк ҳуқуқини олди
- C. «А» компанияси «В» компаниясининг фойдасига боғлиқ бўлган даромадни олиш ҳуқуқини олди
- D. «А» компанияси «В» компаниясининг стратегик қарорларини қабул қилишда иштирок этиш ҳуқуқини олди

20-савол

Компания лицензия шартномаси бўйича ЭҲМ учун дастурга мутлақ бўлмаган мулкый ҳуқуқларни сотиб олди. Компания ўз харажатларини қисқартириш учун дастурдан фойдаланиш ҳуқуқини яна бир нечта ташкилотларга бериши мумкинми?

- A. ҳа, мумкин, чунки ЭҲМ учун дастурга бўлган ҳуқуқлар мутлақ ҳисобланмайди
- B. йўқ, мумкин эмас, чунки компания ЭҲМ учун дастурнинг мулкдори ҳисобланмайди
- C. ҳа, мумкин, агар бу лицензия шартномасида назарда тутилган бўлса
- D. йўқ, мумкин эмас, чунки дастурга бўлган мутлақ бўлмаган ҳуқуқ бундай имкониятни бермайди

21-савол

Жисмоний шахс ўзига мерос сифатида қолган квартирани сотмоқда. Бу тадбиркорлик фаолияти ҳисобланадими?

- A. ҳа, квартирани сотиш тадбиркорлик фаолияти ҳисобланади, чунки жисмоний шахс даромад олади
- B. йўқ, бу тадбиркорлик фаолияти эмас
- C. агар сотиш қиймати сотиб олиш қийматидан юқори бўлса, бу тадбиркорлик фаолияти ҳисобланади
- D. агар жисмоний шахс шу йил давомида битта ёки бир нечта квартирани сотган бўлса, бу тадбиркорлик фаолияти ҳисобланади

22-савол

Германия компанияси 2021 йилдан бери ўзлуксиз равишда резидент бўлган комиссионер орқали товарларни Ўзбекистонга етказиб бермоқда. Етказиб бериш шартномаларини комитент тузади. Комиссионер мустақил агент ҳисобланади ва кўплаб чет эл компанияларига хизмат кўрсатади. Ушбу ҳолатда Ўзбекистонда доимий муассаса ташкил этиш мажбурияти юзага келади ва нима учун?

- A. ҳа, юзага келади, чунки комиссионер Ўзбекистонда чет эл юридик шахси номидан иш юритади ва товарларни реализация қилиш бўйича шартномалар тузади
- B. ҳа, юзага келади, чунки фаолият кетма-кет 12 ойлик давр давомида 183 кундан кўпроқ давом этади
- C. йўқ, юзага келмайди, чунки компания филиал, бўлинма ёки ваколатхона ташкил этмаган
- D. йўқ, юзага келмайди, чунки чет эл компанияси компания номидан шартномаларни имзолашга ваколатли бўлмаган мустақил агент орқали иш юритади

23-савол

Ягона иштирокчи автосалондан сотиб олган шахсий автомобилини қўшимча ҳисса сифатида киритиш орқали жамиятнинг устав фондини кўпайтиришга қарор қилди. Олди-сотди шартномасига асосан автомобилнинг қиймати 225 млн сўмни ташкил этади. Транспорт воситасини баҳолаш тўғрисидаги ҳисоботга асосан, амортизация ва техник ҳолатни ҳисобга олган ҳолда, баҳолаш объектининг қиймати 200 млн сўмни ташкил этди. Муассис устав фондига мулкӣ ҳиссанинг пул баҳосини 250 млн сўм қилиб тасдиқлашга қарор қилди. Жамиятнинг устав фондини қандай миқдорда кўпайтириш ҳуқуқ нуқтаи назаридан тўғри бўлишини кўрсатинг?

- A. автомобилнинг олди-сотди шартномаси асосида 225 млн сўм
- B. транспорт воситасини баҳолаш тўғрисидаги ҳисобот асосида 200 млн сўм
- C. ягона иштирокчининг қарори асосида 250 млн сўм
- D. Устав фонди автомобиль кўринишида мулкӣ ҳисса киритиш орқали кўпайтирилмайди

24-савол

Масъулияти чекланган жамиятга қўшимча капитал жалб қилиш ва иштирокчилар таркибига чет эл компаниясини киритишнинг оқибатлари қандай? Барча тўғри жавобларни танланг.

- A. «А» компаниясининг устав фонди кўпаяди
- B. компания Ўзбекистоннинг норезиденти мақомини олади
- C. аввалги муассисларнинг иштирок этиш улушлари ўзгармайди
- D. компания Ўзбекистоннинг резиденти мақомини сақлаб қолади

25-савол

Компания иштирокчилари директор билан меҳнат шартномасини бекор қилишга ва янги директорни тайинлашга қарор қилдилар. Бўшатишган директор номига берилган компаниянинг электрон рақамли имзоси (ЭРИ) билан қандай ҳаракатлар амалга оширилиши керак?

- A. директор номига берилган компаниянинг ЭРИдан кейинчалик фойдаланиш бирон-бир ҳаракатларни ёки хабардор қилиш тартиб-таомилларини талаб қилмайди
- B. бўшатишган директор ўз номига берилган компаниянинг ЭРИни янги директорга топшириши, у эса – аутентификация омилларини ўзгартириши шарт
- C. бўшатишган директор номига берилган компаниянинг ЭРИ бекор қилинади, янги директор янги ЭРИ олиш учун ариза беради
- D. компаниянинг янги директори ЭРИни берган Давлат рўйхатидан ўтказиш марказини директор алмашганлиги тўғрисида хабардор қилиши шарт

26-савол

«Ягона давлат назорати» ахборот тизими тўғрисида қуйида келтирилган фикрлардан қайсилари тўғри?

- A. «Ягона давлат назорати» ахборот тизимида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан ўтказиладиган бизнес текширувларининг барчаси рўйхатга олиниши керак
- B. «Ягона давлат назорати» ахборот тизимида барча бизнес текширувлари рўйхатга олиниши керак
- C. «Ягона давлат назорати» ахборот тизимида рўйхатга олинмаган бизнес текширувлари ноқонуний ҳисобланади
- D. тадбиркорлик субъектларини текшириш натижалари «Ягона давлат назорати» ахборот тизимида рўйхатга олинмайди

27-савол

Текширилаётган тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқларига нисбатан қуйида келтирилган фикрлардан қайсилари тўғри?

- A. текширилаётган бизнес субъектлари текширувчилардан текширув ўтказиш учун асос ҳисобланадиган ҳужжатларни талаб қилишга ҳақли

- В. текширилаётган бизнес субъектлари адвокат ёки бошқа қонуний вакил келгунига қадар 48 соат мобайнида текширувчиларни текширув объекти ҳудудига киритмасликка ҳақли
- С. текширилаётган бизнес субъектлари бош бухгалтер касаллиги туфайли йўқ бўлганда сўралган молиявий ҳужжатларни тақдим этишни рад этишга ҳақли
- Д. текширилаётган бизнес субъектлари олдинги текширувда солиқ хизматига тасдиқланган кўчирма нусхалар шаклида тақдим этган ҳужжатларни такроран тақдим этмасликка ҳақли

28-савол

Сайёр текширув бошланишидан олдин солиқ инспекторлари белгиланган шаклда расмийлаштирилган буйруқни тақдим этдилар, директорга текширувда иштирок этиш учун юрист ёки адвокатни жалб қилиш ҳуқуқи тушунтирилди. Директорнинг адвокат хизматларидан воз кечишига қарамай, сайёр текширув бошланди. Илгари корхонага режалаштирилган сайёр текширув тўғрисида хабарнома юборилмаган. Солиқ инспекторлари:

- текширув тугаганидан сўнг текширув Текширувларни электрон рўйхатга олиш ягона тизимида рўйхатга олинишини кўрсатдилар;
- уларга маълум бўлган тижорат сирини ошкор қилмаслик тўғрисидаги келишувни имзолашдан бош тортдилар.

Текширувчилар қандай ҳуқуқбузарликка йўл қўйишди?

- А. текширувчилар, ҳатто директор адвокат хизматларидан воз кечганлигига қарамай, фақат юридик хизмат ёки адвокат вакилини текширувга жалб қилгандан кейин текширувни бошлаши мумкин
- В. сайёр текширув бошланишидан олдин солиқ органи текширув санаси ва объектини кўрсатган ҳолда режалаштирилган текширув тўғрисида хабарнома юбориши шарт
- С. текширув бошланишидан олдин у Текширувларни электрон рўйхатга олиш ягона тизимида рўйхатга олиниши керак
- Д. текширувчилар тижорат сирини ошкор қилмаслик тўғрисидаги келишувни имзолашлари шарт

29-савол

Компания бош бухгалтери ўз ҳаракатлари билан компанияга зарар етказди. Товарларни сотишдан олинган даромадларни нотўғри ҳисобга олиш натижасида компания Солиқ кодексининг 223-моддаси «Солиқ базасини яшириш (камайтириб кўрсатиш)» бўйича жаримага тортилди. Бош бухгалтер ўз айбини тан олишдан бош тортди ва суд даъвосидан хавотирланиб, квартира, автомобиль ва далаҳовлисини қариндошига совға қилди. Бош бухгалтерга нисбатан зарарнинг ўрнини қоплаш ва мол-мулкни совға қилиш тўғрисидаги битимни ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисидаги даъвони кўриб чиқаётган суднинг эҳтимолий қарорига нисбатан қуйида келтирилган фикрлардан қайси бири тўғри?

- А. суд деликтни тан олади, аммо ҳада қилиш битимини ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб топишни рад этади, чунки у бундай деликт бўйича зарарни ундириш тўғрисидаги суд қарорининг қонуний кучга кириш санасига қадар амалга оширилган
- В. суд деликтни тан олмайди, чунки бош бухгалтерни назорат қилиши шарт бўлган компания раҳбари жавобгар бўлади ва ҳада қилиш битимини ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб топишни рад этади

- C. суд деликтни тан олади, шунингдек ҳадя қилиш битимини ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб топади, чунки зарарнинг ўрнини қоплаш мажбурияти зарар етказилган пайдан бошлаб юзага келади
- D. суд деликтни тан олмайди, чунки бош бухгалтернинг иш ҳақидан ушланмалар иш ҳақининг 50 %дан ошиб кетади, бу эса Меҳнат кодексига зид

30-савол

«А» компанияси «В» компаниясидан товарни бўлиб-бўлиб тўлаш шarti билан сотиб олди. Вақтинчалик молиявий қийинчиликлар туфайли «А» компанияси қарзни «С» компаниясига ўтказмоқчи, «В» компанияси эса ўзининг қарз талабидан бошқа шахс фойдасига воз кечиш ҳуқуқини «D» компаниясига бермоқчи. Қуйида келтирилган фикрлардан қайси бири тўғри?

- A. қарзни «С» компаниясига ўтказиш учун «А» компанияси «В» компаниясининг розилигини олиши керак, «В» компанияси эса талаб қилиш ҳуқуқини «D» компаниясига ўтказиш учун «А» компаниясининг розилигини олиши шарт эмас
- B. қарзни «С» компаниясига ўтказиш учун «А» компанияси «В» компаниясини хабардор қилиши керак, «В» компанияси эса талаб қилиш ҳуқуқини «D» компаниясига ўтказиш учун «А» компаниясининг розилигини олиши керак
- C. қарзни «С» компаниясига ўтказиш учун «А» компанияси «В» компаниясининг розилигини олиши керак, «В» компанияси ҳам талаб қилиш ҳуқуқини «D» компаниясига ўтказиш учун «А» компаниясининг розилигини олиши керак
- D. қарзни «С» компаниясига ўтказиш учун «А» компанияси «В» компаниясининг розилигини олиши шарт эмас, «В» компанияси ҳам талаб қилиш ҳуқуқини «D» компаниясига ўтказиш учун «А» компаниясининг розилигини олиши шарт эмас

31-савол

Контрагентни танлашда лозим даражада эҳтиёткорликнинг мақсадини қайси жавоб энг аниқ тарзда акс эттиради?

- A. салбий солиқ оқибатлари хатарларисиз контрагент билан шартнома тузиш мумкинлигига ишонч ҳосил қилиш
- B. инсофсиз ташкилот билан шартнома тузишга йўл қўймаслик тўғрисидаги қонунчилик талабини бажариш
- C. контрагент инсофли ташкилот эканлигига ва барча солиқларни ўз вақтида тўлашига ишонч ҳосил қилиш
- D. битимни амалга оширишга сарфланадиган вақтни қисқартиради, чунки контрагент инсофли етказиб берувчи ҳисобланади

32-савол

«А» компаниясининг директори антисептик воситалар етказиб берувчисини саралаб олишда «Б» компаниясининг директори билан товарни оширилган нархларда сотиб олиш бўйича битим тузди. Битим шarti қонуний ёки шартномавий асосларда назарда тутилмаган, шартнома умумий суммасининг 5 фоизи миқдорида шахсий мукофот олиш бўлган. Натижада

томонлар ўртасида «А» компанияси учун ноқулай шартларда (нарх 15%га оширилган) шартнома тузилди. «А» ва «Б» компаниялари ўртасида ўзаро ҳисоб-китоблар амалга оширилгандан сўнг «А» компаниясининг директори шартлашилган ноқонуний шахсий мукофотни олмади. Бир муддат ўтгач, «А» компанияси муассисларига директорнинг ғайриқонуний ҳаракатлари маълум бўлиб қолди. Ушбу битим тўғрисида қуйида келтирилган фикрлардан қайси бири тўғри?

- A. бир томон вакилининг бошқа томон билан ёвуз ниятдаги келишуви таъсирида тузилган битим жабрланган томоннинг даъвоси бўйича суд томонидан ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин
- B. битим қонуний ҳисобланади, чунки тил бириктирган иштирокчилар («А» ва «Б» компаниялари ходимлари) уни амалга оширишдан бирон-бир моддий наф олмадилар. Бунда кўрсатилган шахслар тегишинча фирибгарлик ва тижоратда пора эвазига оғдириб олишга суиқасд қилганлик учун жиноий жавобгарликка тортилиши мумкин. Келтирилган зарар суммаси суд томонидан солидар фуқаролик тартибида тил бириктирган иштирокчилардан ундирилиши мумкин
- C. бундай тил бириктириш иштирокчиси битимни тузишдан бирон-бир наф олмаган ва шу боис у ҳақиқий эмас деб топилмаслиги керак
- D. суд битимни ҳақиқий эмас деб топган тақдирда, битим томонларидан ҳар бири («А» ва «Б» компаниялари) бошқа томонга битим бўйича олинган ҳамма нарсани қайтаришга мажбур бўлади, олинганни натура ҳолида қайтариш имкони бўлмаган тақдирда – унинг қийматини пулда тўлаши шарт

33-савол

Шартномани ўзгартириш ва бекор қилиш оқибатларига нисбатан қуйида келтирилган фикрлардан қайси бири тўғри?

- A. шартнома ўзгартирилганда тарафларнинг мажбуриятлари ўзгартирилган ҳолда сақланиб қолади, бекор қилинганда эса – тўхтатилади
- B. тарафлар шартнома ўзгартирилган пайтга қадар мажбурият бўйича ўзлари бажарган нарсалар қайтарилишини талаб қилишга ҳақли
- C. шартнома суд тартибида ўзгартирилганда ёки бекор қилинганда мажбуриятлар судга мурожаат қилган пайтдан бошлаб ўзгартирилган ёки тўхтатилган ҳисобланади
- D. агар бир томон шартнома бўйича барча мажбуриятларини бажарса, бошқа томон шартномани ўзгартиришни таклиф қилишга ҳақли эмас

34-савол

Компания ўз ходимига сотувчилардан товарларни қабул қилиш имконини берувчи ишончнома расмийлаштирди. Ишончномада амал қилиш муддати кўрсатилмаган. Ишончнома қандай давр давомида ҳақиқий ҳисобланади?

- A. у берилган кундан бошлаб олти ой давомида
- B. у берилган кундан бошлаб бир йил давомида

- C. у берилган кундан бошлаб уч йил давомида
- D. ишончномани берган шахс бекор қилгунга қадар муддатсиз

35-савол

Қандай ҳолларда харидорнинг етказиб бериш шартномасини бажаришдан бир томонлама воз кечишига йўл қўйилади?

- A. етказиб берувчи товарларни етказиб бериш муддатларини бир неча марта бузганда
- B. етказиб берувчи товардаги камчиликларни бартараф этиш харажатларини қопламаганда
- C. етказиб берувчи харидор учун мақбул бўлган муддатда бартараф этиб бўлмайдиган камчиликлари бўлган сифати лозим даражада бўлмаган товарларни етказиб берганда
- D. етказиб берувчи сифати лозим даражада бўлмаган товар учун сотиб олиш нархини мутаносиб равишда камайтиришдан бош тортганда

36-савол

Шартномада шартнома мажбуриятларини бузганлик учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик чораси сифатида нимани назарда тутиш мумкин эмас?

- A. неустойка (жарима, пеня)
- B. бошқа шахсининг пул маблағларидан фойдаланганлик учун фоизлар тўлаш
- C. мол-мулкни хатлаш
- D. зарарларнинг ўрнини қоплаш

37-савол

Масъулияти чекланган жамият иштирокчилари қўшимча ҳиссалар ҳисобидан жамиятнинг устав фонддини кўпайтирдилар. Ушбу ҳиссалар МЧЖ учун молиялаштиришнинг қайси манбасига тааллуқли эканлигини аниқланг.

- A. ўз маблағлари
- B. қарз маблағлари
- C. инвестицияларни молиялаштириш
- D. венчур молиялаштириш

38-савол

Масъулияти чекланган жамият иштирокчиларининг умумий йиғилиши фойдани тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилди. Қуйида келтирилган қоидалардан қайси бири тўғри?

- A. дивидендлар фойдани тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан бошлаб даъво муддати – 3 йил ичида тўланиши керак, даъво муддати тугагандан сўнг дивидендлар тўланмаган тақдирда, дивидендларни олиш ҳуқуқи йўқолади

- В. дивидендлар фойдани тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан бошлаб 60 кун ичида тўланиши керак, ушбу муддат ўтгач иштирокчи даъво муддати давомиди дивидендлар тўланишини талаб қилишга ҳақли
- С. дивидендлар фойдани тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан бошлаб 60 кун ичида тўланиши керак, ушбу муддат ўтказиб юборилган тақдирда компания жарима тўлайди
- Д. дивидендлар фойдани тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан бошлаб даъво муддати – 3 йил ичида тўланиши керак, ушбу муддат ўтказиб юборилган тақдирда компания жарима тўлайди

39-савол

Қуйида келтирилганлардан нима иш берувчининг асосий мажбуриятларига кирази? Барча тўғри жавобларни танланг.

- А. меҳнат шартномаларини «Ягона миллий меҳнат тизими»да ўз вақтида рўйхатдан ўтказиш
- В. виждонан самарали меҳнат қилганлик учун ходимларни рағбатлантириш
- С. ходимларни бирлашиш ҳуқуқи тўғрисида хабардор қилиш
- Д. жамоавий музокараларни олиб бориш ва жамоа шартномаларини тузиш

40-савол

Қандай меҳнат шартномаларида меҳнат шартномаси муддатидан олдин бекор қилинганда неустойка тўлаш ҳақида томонларнинг ўзаро мажбуриятлари назарда тутилиши мумкин?

- А. ҳар қандай меҳнат шартномасида
- В. ҳар қандай муддатли меҳнат шартномасида
- С. номуайян муддатга тузилган ҳар қандай меҳнат шартномасида
- Д. вақтинчалик ишларни бажариш вақти учун тузилган меҳнат шартномасида

41-савол

«А» компанияси жисмоний шахс билан солиқ масалалари бўйича маслаҳат бериш тўғрисида шартнома тузди. Шартномада қуйидаги шартлар белгиланган: тўлов маслаҳат бериш сонига қараб ҳар ойда амалга оширилади; иш вақти режими 9:00 дан 15:00 гача белгиланган; компания иш учун офис техникаси билан жиҳозланган иш жойини тақдим этади; ҳар йилги таътил – 21 кун; кўрсатилган хизматлар натижаларини солиштириш иккала томон имзоладиган далолатнома асосида амалга оширилади. Шартномада кўрсатилган ва фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятдаги шартномани меҳнат шартномасига қайта малакалашга сабаб бўлиши мумкин бўлган барча шартларни санаб ўтинг.

- А. ҳар ойлик тўлов; иш вақти режими; иш жойини тақдим этиш
- В. иш вақти режими; ҳар йилги таътил; кўрсатилган хизматларни далолатнома билан солиштириш
- С. ҳар ойлик тўлов; иш жойини тақдим этиш; кўрсатилган хизматларни далолатнома билан солиштириш
- Д. иш вақти режими; иш жойини тақдим этиш; ҳар йилги таътил

42-савол

Ҳомиладор аёллар ва икки ёшга тўлмаган боласи бўлган аёлларни бошқа ишга вақтинча ўтказиш тўғрисида буйруқ чиқариш учун нима асос ҳисобланади?

- A. ходимнинг аризаси ва тиббий хулоса
- B. иш берувчининг ташаббуси ва тиббий хулоса
- C. тегишли бошлиқнинг билдиргиси ва тиббий хулоса
- D. ишлаб чиқариш зарурияти ёки бекор туриб қолиш ҳолати мавжудлиги

43-савол

«А» компанияси директор билан 1 йиллик синов муддати ва бош бухгалтер билан 6 ойлик синов муддати билан меҳнат шартномалари тузди. «В» компанияси директор ва бош бухгалтер билан иккаласи учун 6 ойлик синов муддати билан меҳнат шартномалари тузди. «С» компанияси директор билан 5 ойлик синов муддати ва бош бухгалтер билан 2 ойлик синов муддати билан меҳнат шартномалари тузди. Қайси компаниялар синов муддати бўйича талабларни бузмаган?

- A. «А» ва «В» компаниялари
- B. «А» ва «С» компаниялари
- C. «В» ва «С» компаниялари
- D. «А», «В» ва «С» компаниялари

44-савол

Қуйида келтирилганлардан нима ходимнинг иш вақтидан ташқари иш учун ҳақ тўлашга бўлган ҳуқуқини бузади?

- A. иш вақтидан ташқари иш учун камида икки ҳисса миқдорида ёки жамоа шартномаси ёхуд корхонанинг ички ҳужжатида мувофиқ ундан кўпроқ миқдорда ҳақ тўланади
- B. ходимнинг хоҳишига кўра иш вақтидан ташқари иш учун оширилган ҳақ тўлаш ўрнига иш вақтидан ташқари ишланган вақт давомийлигига мувофиқ келадиган қўшимча дам олиш вақти бериш билан компенсация қилиниши мумкин
- C. қўшимча дам олиш вақти берилганда иш вақтидан ташқари иш учун бир ҳисса миқдорида ҳақ тўланади, дам олиш вақти учун эса ҳақ тўланмайди
- D. иш берувчининг ихтиёрига кўра иш вақтидан ташқари ишланган вақт давомийлигига мувофиқ келадиган қўшимча дам олиш вақти берилади

45-савол

Қуйида келтирилганлардан нима хусусий компания учун умумий қоидалар бўйича интизомий жазо чораларига киради? Барча тўғри жавобларни танланг.

- A. ўртача ойлик иш ҳақининг ўттиз фоизидан кўп бўлмаган миқдорда жарима
- B. эгаллаб турган лавозимига тўлиқ мувофиқ келмаслик

- C. меҳнат шартномасини бекор қилиш
- D. ишончининг йўқолиши

46-савол

Умумий бўшатиш тартиби татбиқ этиладиган ходим ишдан бўшашга қарро қилди ва 2023 йил 20 июнда Меҳнат кодексида белгиланган умумий тартибга мувофиқ, иш берувчини ёзма равишда огоҳлантирган ҳолда, ариза берди. Агар 28-30 июнь ва 1-2 июль ишланмайдиган кунлар бўлса, иш берувчи қайси санада ходимни ишдан бўшатиш тўғрисида буйруқ чиқариши керак ва ходим қайси санадан бошлаб ишдан бўшатишга ҳисобланади?

- A. иш берувчи 4 июлда ходимни ишдан бўшатиш тўғрисида буйруқ чиқариши керак, ходим 5 июлдан бошлаб ишдан бўшатишга ҳисобланади
- B. иш берувчи 3 июлда ходимни ишдан бўшатиш тўғрисида буйруқ чиқариши керак, ходим 4 июлдан бошлаб ишдан бўшатишга ҳисобланади
- C. иш берувчи 10 июлда ходимни ишдан бўшатиш тўғрисида буйруқ чиқариши керак, ходим худди шу кундан бошлаб ишдан бўшатишга ҳисобланади
- D. иш берувчи 10 июлда ходимни ишдан бўшатиш тўғрисида буйруқ чиқариши керак, ходим 11 июлдан бошлаб ишдан бўшатишга ҳисобланади

47-савол

2023 йил август ойида Компания ходим иш берувчи билан бошқа ҳудудга кўчиб ишлашдан бош тортганлиги сабабли у билан меҳнат шартномасини бекор қилади. Ходим компанияда 2020 йилнинг бошидан буён ишлаган. Ходимнинг ўртача ойлик иш ҳақи 8 600 000 сўмни ташкил этди. Агар ички ҳужжатларда ва меҳнат шартномасида тўловнинг махсус тартиби назарда тутилмаган бўлса, компания ишдан бўшатиш чоғида ходимга қандай миқдорда ишдан бўшатиш нафақасини тўлаши керак?

- A. 6 450 000 сўм
- B. 8 600 000 сўм
- C. 12 900 000 сўм
- D. 17 200 000 сўм

48-савол

Компания ходимларининг шахсга доир маълумотларига кириш ҳуқуқига эга бўлган директор ҳамкасблари билан суҳбатда бўлимлардан бирининг раҳбари судланганлиги ва ушбу судланганликнинг сабаблари ҳақида хабар берди. Бунинг натижасида, ходимлар у билан мулоқот қилишдан бош тортдилар, шу жумладан иш масалалари бўйича ҳам. Бўлим бошлиғи ишдан бўшашга мажбур бўлди. Суд ходимнинг шахсга доир маълумотлари ошкор қилиниши натижасида у доимий иш ҳақидан маҳрум бўлганлигини тан олди. Шахсга доир маълумотларни ошкор қилганлик учун директор учун қандай ҳуқуқий оқибатлар юзага келиши мумкин?

- A. директор ўз ходимларининг шахсга доир маълумотлари ошкор этилган ходим билан мулоқот қилишни истамаганликлари учун жавобгар бўлмайди
- B. директор ходимнинг шахсга доир маълумотларини ошкор қилганлик учун жарима тўлаши керак бўлади

- C. суд қарори билан директор маъмурий жавобгарликка тортилиши ва йўқотилган иш ҳақини қоплаш мажбуриятини ўз зиммасига олиши мумкин
- D. директор маъмурий ва жиноий жавобгарликка тортилиши, шунингдек йўқотилган иш ҳақини қоплаши мумкин

49-савол

Ҳакамлик суди қарори қандай ижро этилади?

- A. ҳакамлик суди томонидан берилган ижро варақаси асосида мажбурий равишда
- B. қарорда белгиланган тартиб ва муддатларда ихтиёрий равишда, ижро этилмаган тақдирда эса – иш ваколатли (фуқаролик ишлари бўйича ёки иқтисодий) судга кўриб чиқиш учун топширилади
- C. қарорда белгиланган тартиб ва муддатларда ихтиёрий равишда, ижро этилмаган тақдирда эса – ваколатли суд томонидан берилган ижро варақаси асосида мажбурий равишда ижро этилади
- D. ижро варақаси асосида маъмурий тартибда мажбурий равишда

50-савол

Судда буйруқ тартибида ишларни ва даъво ишини юритишнинг асосий фарқлари қандай?

- A. буйруқ тартибида ишларни юритиш даъво ишини юритишдан фарқли равишда соддалаштирилган тартибда амалга оширилади – иш судья томонидан якка тартибда, суд муҳокамаси ўтказилмасдан, ишда иштирок этувчи шахсларни чақирмасдан, фақат ундирувчи томонидан ўз талабларини тасдиқлаш учун тақдим этилган ёзма далиллар асосида кўриб чиқилади
- B. буйруқ тартибида ишларни юритиш ундирувчи томонидан ўз талабларини тасдиқлаш учун тақдим этилган ёзма далиллар асосида ҳудди даъво ишини юритиш каби амалга оширилади, бундан ишда иштирок этувчи шахсларни чақириш мустасно
- C. буйруқ тартибида ишларни юритиш суд муҳокамаси ўтказилмасдан, ишда иштирок этувчи шахсларни чақирмасдан, фақат ундирувчи томонидан ўз талабларини тасдиқлаш учун тақдим этилган ёзма далиллар асосида судьялар ҳайъати томонидан соддалаштирилган тартибда кўриб чиқилади
- D. ҳеч қандай фарқлар йўқ, буйруқ тартибида ишларни юритиш ҳудди даъво ишини юритиш каби амалга оширилади

ЖАВОБЛАР

1-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

ФКнинг 735-моддаси қоидалари қарз ҳуқуқий муносабатига нисбатан махсус меъёр ҳисобланади, бунда ФКнинг 242-моддаси қоидалари дастлабки ҳолатда барча мажбурият хусусиятидаги ҳуқуқий муносабатларга нисбатан қонуннинг умумий меъёри ҳисобланади. «*Lex specialis derogate generali*», яъни «муайян ҳуқуқий муносабатга нисбатан махсус ҳуқуқ меъёри умумий меъёрни чиқариб ташлайди». Шу тариқа, кўрсатилган ҳолда Қарз олувчи қарз суммасини тўлашда ҳуқуқнинг махсус меъёри, яъни ФКнинг 735-моддаси қоидаларига амал қилиш юзасидан тўлиқ ҳуқуққа эга.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.1 D-бандига қаранг

2-саволга жавоб

D.

Жавобга изоҳ:

Ўзбекистонда ҳуқуқнинг асосий манбалари қуйидагилардир:

- 1) Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар;
- 2) Халқаро шартномалар ва битимлар;
- 3) Тарафлар ўртасидаги шартнома (агар қонунчилик талабларига зид бўлмаса) – шартнома тарафлари учун;
- 4) Ҳуқуқий одат;
- 5) Ҳуқуқнинг умумий тамойиллари.

Суд ёки ҳуқуқий прецедент, шунингдек ҳуқуқий доктрина (олим-ҳуқуқшуносларнинг ҳуқуқнинг муайян масалалари бўйича ишлари) ҳуқуқ манбалари ҳисобланмайди. Шу тариқа, суд қарор қабул қилишда суд прецедентига амал қилиши шарт эмас.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.2 А-бандига қаранг

3-савол жавоби

D.

Жавобга изоҳ:

Солиқлар ва йиғимлар ставкалари Солиқ кодексида белгиланади ва ўзгартирилади. Солиқ кодексининг 4-моддаси 6-қисмида белгиланишича, «Солиқлар ва йиғимлар ставкаларининг ўзгартирилишини назарда тутувчи солиқ тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари, агар уларда кечроқ муддат кўрсатилмаган бўлса, улар расман эълон қилинган ойдан кейинги ойнинг биринчи кунидан эътиборан амалга киритилади». Шу тариқа, кўрсатилган солиқ ставкасининг пасайтирилиши тадбиркор учун СКга ўзгартиришлар кучга кирган санадан бошлаб қўлланилиши мумкин бўлади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.3 А-бандига қаранг

4-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуннинг (20.04.2021 йилдаги ЎРҚ-682-сон) 18-моддасида белгиланишича, «тенг юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида тафовутлар бўлган тақдирда, кейинроқ қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат қоидалари амал қилади». Ҳар иккала кўрсатилган НХҲ тенг юридик кучга эга эканлигини ҳисобга олган ҳолда, солиқ тўловчи вақт бўйича кейинроқ қабул қилинган ҳуқуқ меъёрини қўллаши шарт.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.3 С-бандига қаранг

5-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуннинг (20.04.2021 йилдаги ЎРҚ-682-сон) 40-моддасида белгиланишича, «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, агар ҳужжатларнинг ўзида кечроқ муддат кўрсатилмаган бўлса, расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради». Ўша қонуннинг 39-моддасида белгиланишича, хусусан, «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами», «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси», шунингдек вазирликлар ва идораларнинг расмий нашрлари вазирликлар ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинадиган расмий манбалардир».

lex.uz сайтида («Қонунчилик маълумотлари миллий базаси») эълон қилиш «Банк ахборотномаси» идоравий газетасида нашр этилишидан олдин содир бўлганлигини инобатга олиб, қарор сайтда эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.3 D-бандига қаранг

6-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуннинг (20.04.2021 йилдаги ЎРҚ-682-сон) 55-моддаси 4-хатбошисида белгиланишича, «Қонуности ҳужжатлари нормаларига расмий шарҳни уларни қабул қилган органлар беради». МХҲлар иерархиясида (ЎРҚ-682-сон 7-м.) Президент қарори қонуности ҳужжати ҳисобланади. Тегишинча, мазкур ҳолда Президент қарорини қабул қилган орган сифатида расмий шарҳ бериш ҳуқуқига Президент эгадир. Шу тариқа, Солиқ қўмитаси томонидан берилган тушунтириш МХҲнинг расмий шарҳи ҳисобланмайди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.3 F-бандига қаранг

7-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

Солиқ кодексидаги ҳуқуқ меъёрига ҳавола хатбошининг таркибий рақами, қисмининг тартиб рақами (агар мавжуд бўлса) ва Кодекс моддасининг рақамини ўз ичига олиши керак.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.4 В-бандига қаранг

8-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 146-моддасида белгиланишича, «Вақт даври билан белгиланган муддат календар санадан кейинги ёки унинг бошланиш куни деб белгиланган воқеа юз берганидан кейинги кундан ўта бошлайди». Шу тариқа, шартномада белгиланган муддат 2023 йил 1 июндан ўта бошлаган ва тегишинча, 2023 йил 6 июнга қадар тугайди, яъни тўлов ушбу сана келгунга қадар амалга оширилиши керак.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 1.6 А-бандига қаранг

9-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Таърифга кўра, якка тартибдаги тадбиркор – бу патент асосида юридик шахсни рўйхатдан ўтказмасдан хўжалик (тадбиркорлик) фаолиятини амалга оширувчи жисмоний шахс. У «Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида»ги 29.08.2001 йилдаги 258-II-сон Қонуннинг 52-моддасида кўрсатилган мол-мулкдан ташқари, ўзига тегишли бўлган барча мол-мулк билан ўз мажбуриятлари бўйича жавоб беради.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.1 D-бандига қаранг

10-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 39-моддасига мувофиқ, «Ўз мулкида, хўжалик юритишида ёки оператив бошқарувида алоҳида мол-мулкка эга бўлган ҳамда ўз мажбуриятлари юзасидан ушбу мол-мулк билан жавоб берадиган, ўз номидан мулккий ёки шахсий номлуқий ҳуқуқларга эга бўла оладиган ва уларни амалга ошира оладиган, мажбуриятларни бажара оладиган, судда даъвогар ва жавобгар бўла оладиган ташкилот юридик шахс ҳисобланади». Шу тариқа, юридик шахснинг балансида турган мол-мулк унинг мулки ҳисобланади. Юридик шахс муассислари фақат қонун ва устав билан белгиланган юридик шахсга нисбатан корпоратив талаб қилиш ҳуқуқларига эга. Бунда улар унинг мол-мулкининг мулкдорлари эмас.

Юридик шахснинг ходимлари юридик шахс билан меҳнат шартномаси асосида ўз функционал мажбуриятларини бажарадилар ва юридик шахс мулкига бўлган мулкӣ ҳуқуқларга эга эмас. Агар шартномада бошқача тартиб белгиланмаган бўлса, олди-сотди шартномаси бўйича сотувчи ўтказилган маҳсулот ва бошқа ТМЗга бўлган мулк ҳуқуқи юзасидан низолашиш ҳуқуқига эга эмас. Шартнома бўйича у фақат етказиб берилган маҳсулот учун тўлов амалга оширилишини талаб қилиш ҳуқуқига эга (шу жумладан тўловни кечиктирганлик учун пеня ва шартномадан келиб чиқадиган бошқа ҳуқуқлар).

Бунда, қонунда белгиланишича, масалан, Хусусий корхонанинг ягона иштирокчиси ушбу корхонанинг мулкдори сифатида қаралиши керак. Аммо ҳатто мазкур ҳолда ҳам корхона мол-мулкнинг мулкдори корхонанинг ўзи ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.1 D-бандига қаранг

11-саволга жавоб

D.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 47-моддасида белгиланишича, хусусан, «Филиал юридик шахснинг у турган ердан ташқарида жойлашган ҳамда унинг барча вазифаларини ёки вазифаларининг бир қисмини, шу жумладан ваколатхона вазифаларини бажарадиган алоҳида бўлинмасидир.

Агар қонунда бошқача тартиб белгиланган бўлмаса, ваколатхона ва филиаллар юридик шахс ҳисобланмайди. Улар ўзларини ташкил этган юридик шахс томонидан мол-мулк билан таъминланадилар ҳамда у тасдиқлаган низомлар асосида иш олиб борадилар. Улар ўзларини ташкил этган юридик шахс томонидан мол-мулк билан таъминланадилар ҳамда у тасдиқлаган низомлар асосида иш олиб борадилар».

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.2 B-бандига қаранг

12-саволга жавоб

C. D.

Жавобга изоҳ:

Қонунчилик тижорат ташкилоти фаолиятининг мақсади фойда олиш эканлигини белгилайди. Бунда нотижорат ташкилоти (ННТ) учун фойда олишга йўл қўйилади, лекин у фаолиятнинг асосий мақсади бўлиши мумкин эмас. ННТ учун фаолият мақсадлари таълим, ижтимоий, ҳомийлик ва бошқа мақсадлар бўлиши мумкин, бунда тижорат хизматлари кўрсатишга ҳам йўл қўйилади. Тижорат хизматлари қисмида ННТ ҳам худди тижорат ташкилоти каби тегишли солиқларни тўлаши шарт. Бунда ННТнинг фойдаси муассислар ўртасида тақсимланмайди, балки уставда белгиланган мақсадларга йўналтирилади.

Тегишинча, ННТ бепул таълим хизматларини кўрсатиши мумкин, лекин мажбур эмас ва пулли хизматлар кўрсатишда уларнинг таннархи билан чекланмаслиги керак.

Юқорида айтилганларни ҳисобга олган ҳолда, тўғри жавоблар C ва D бўлади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.2 E-бандига қаранг

13-саволга жавоб

D.

Жавобга изоҳ:

«Мансабдор шахс» ва «Ижро этувчи орган» атамалари ўртасидаги фарқни англаш керак. Мансабдор шахс – бу ташкилий-бошқарув ёки маъмурий-хўжалик функцияларини бажариш билан боғлиқ лавозимларни эгаллаган ва юридик аҳамиятга эга бўлган ҳамда юридик оқибатларга олиб келадиган қарорлар қабул қилиш ваколатига эга бўлган ҳуқуқий муносабатларнинг махсус субъекти. Юридик шахс фаолияти доирасида юқорида кўрсатилган хусусиятларга жавоб берадиган ҳар қандай шахс Мансабдор шахс бўлиши мумкин.

Бунда Ижро этувчи орган (якка бошчилик асосида ёки коллегиял) фақат қонун ёки юридик шахснинг уставида аниқ номи кўрсатилган ва раҳбарлик функцияларини амалга ошириш ва ишончномасиз юридик шахс манфаатларини ифодалаш учун қонуний ҳуқуққа эга бўлган субъект бўлиши мумкин. Амалиётда ижро этувчи орган кўпинча Директор (Бош директор) ёки Бошқарув томонидан ифодаланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.2 G-бандига қаранг

14-саволга жавоб

B.

Жавобга изоҳ:

21.08.2019 йилдаги 704-сон ВМҚга 1-илова «Тадбиркорлик субъектларини ихтиёрий тугатиш ва уларнинг фаолиятини тўхтатиш тартиби тўғрисидаги низом»нинг 24-бандига мувофиқ, қарзни тўлаш тартиби б) кичик бандида кўрсатилганига мувофиқ бўлади, яъни меҳнатга оид муносабатлар, алиментлар, муаллифлик ҳақи, ҳаёт ва соғлиққа етказилган зарар, кейин солиқлар, сўнгга бошқа кредиторларнинг талаблари.

Шуни ҳам инобатга олиш лозимки, қарзларни сўндириш навбати, масалан, Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги Қонун ва Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисидаги Қонун каби бошқа ҳуқуқий ҳужжатларда ҳам белгиланган. Кўрсатилган қонунлар қоидаларини қўллашдаги устуворлик муайян ишнинг бевосита вазиятларига боғлиқ.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.2 L бандига қаранг

15-савол жавоби

A. B. D.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 39-моддаси юридик шахс тушунчасини белгилашда, хусусан, юридик шахслар мулк ҳуқуқи асосида уларга тегишли бўлган мол-мулк билан ўз мажбуриятлари бўйича жавоб беришини белгилайди (А-жавоби)).

Фуқаролик кодексининг 48-моддаси 3-хатбошисида белгиланишича, «Юридик шахс муассиси (иштирокчиси) ёки унинг мол-мулкининг эгаси юридик шахснинг мажбуриятлари бўйича жавоб бермайди, юридик шахс эса муассис (иштирокчи) ёки мулкдорнинг мажбуриятлари бўйича жавоб бермайди, ушбу Кодексда ёки юридик шахснинг таъсис ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно» (В- жавоби).

Фуқаролик кодексининг 48-моддаси 4-хатбошисида белгиланишича: «Агар юридик шахснинг ночорлиги (банкротлиги) шу юридик шахс учун мажбурий кўрсатмаларни бериш ҳуқуқига эга бўлган муассис (иштирокчи) сифатидаги шахснинг ёки юридик шахс мол-мулки мулкдорининг ғайриқонуний ҳаракатлари туфайли вужудга келтирилган бўлса, юридик шахснинг мол-мулки етарли бўлмаган тақдирда бундай шахс зиммасига унинг мажбуриятлари бўйича субсидиар жавобгарлик юклатилиши мумкин» (D-жавоби). Фуқаролик кодексининг 14-бобида мувофиқ, хўжалик юритиш ва оператив бошқариш ҳуқуқлари жисмоний шахслар учун хос эмас ва юридик шахсларнинг фаолияти билан боғлиқ. Шу тариқа, гарчи жисмоний шахс шубҳасиз ўзига мулк ҳуқуқи асосида тегишли бўлган мол-мулк билан ўз мажбуриятлари бўйича жавоб берса-да (қонунда тўғридан-тўғри белгиланган чекловлар бундан мустасно), жисмоний шахс хўжалик юритиш ва оператив бошқариш ҳуқуқи асосидаги мол-мулк билан жавоб бериши мумкин эмас (С-жавоби).

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.2 D, 3.1.A-бандларига қаранг

16-саволга жавоб

В. С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 50-моддаси қоидаларига амал қилган ҳолда, А ва В компаниялари қўшиб юборилганда (А-варианти) иккала компаниянинг фаолияти тугатилиб, учинчи шахс ташкил этилишини ва у кейинчалик фаолият юритишини аниқлаш мумкин.

А компаниясини В компаниясига бирлаштирилганда (В-варианти) фақат А компаниясининг фаолияти тугатилади, В компанияси эса ўз фаолиятини давом эттиради.

А компанияси В ва С компанияларига бўлинганда (С-варианти) битта А компаниясининг фаолияти тугатилади, бу топшириқ шартига мувофиқ келади.

А компанияси қайта тузилганда, яъни ташкилий-ҳуқуқий шакли ўзгарганда (D-варианти), ҳақиқатда компания ўз фаолиятини давом эттиради.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 2.2 I-бандига қаранг

17-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

ФКнинг 386-моддаси 1-хатбошисига мувофиқ, «Олди-сотди шартномаси бўйича бир тараф (сотувчи) товарни бошқа тараф (сотиб олувчи)га мулк қилиб топшириш мажбуриятини, сотиб олувчи эса бу товарни қабул қилиш ва унинг учун белгиланган пул суммаси (баҳоси)ни тўлаш мажбуриятини олади».

Товарнинг сотиб олувчи мулкига ўтиш пайти ФКнинг 390-моддасида, агар қонунда (масалан, автомобиллар ёки кўчмас мулк учун) ёки шартномада (сотувчи товарга бўлган мулк ҳуқуқини тўлов пайтигача сақлаб қолиши белгиланган бўлса) бошқача тартиб белгиланмаган бўлса, товар сотиб олувчига топширилган ёки сотиб олувчи тасарруфига берилган пайт сифатида белгиланган. Олди-сотди шартномасидан сотувчининг товарни етказиб бериш ёки сотиб олувчига товарни унинг турган жойида топшириш мажбурияти келиб чиқмайдиган ҳолларда, агар шартномада бошқача тартиб назарда тутилмаган бўлса, сотувчининг товарни сотиб олувчига топшириш мажбурияти товар ташувчига ёки сотиб олувчига жўнатиш учун алоқа ташкилотига топширилган пайтдан бошлаб бажарилган ҳисобланади.

Шу тариқа, мазкур ҳолда Сотиб олувчи 25 июлда хом ашёнинг мулкдорига айланди, Сотувчида эса фақат шартномада белгиланган нархни талаб қилиш ҳуқуқи қолди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 3.1.Е-бандига қаранг

18-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 481-моддасида белгиланишича, кўчмас мулкни сотиш шартномаси бўйича кўчмас мулкка бўлган мулк ҳуқуқининг сотиб олувчига ўтиши давлат рўйхатидан ўтказилиши лозим. Мулк ҳуқуқининг ўтиши давлат рўйхатидан ўтказилгунигача қадар кўчмас мулкни сотиш шартномасининг тарафлар томонидан бажарилиши уларнинг учинчи шахслар билан муносабатларини ўзгартириш учун асос бўлмайди.

Шу тариқа, ҳуқуқий нуқтаи назардан сотиб олувчининг кўчмас мулк объектига бўлган мулк ҳуқуқи фақат давлат кадастри органларида рўйхатдан ўтказилганидан сўнг юзага келди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 3.2.Е-бандига қаранг

19-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

Топшириқда А компанияси қандай акцияларни сотиб олгани кўрсатилмаган. Қатъий белгиланган фоизли даромад олиш (А-варианти) фақат имтиёзли акцияларнинг муайян турига кафолатланиши мумкин, бу ҳақда шартда ҳеч нарса айтилмаган. Оддий акциялар эса компаниянинг молиявий кўрсаткичларига қараб даромад келтириши ҳам, келтирмаслиги ҳам мумкин.

Акция сақловчисининг даромади компания фойдасига бевосита боғлиқ бўлмаслиги мумкин (С-варианти), агар сотиб олинган акциялар имтиёзли бўлса.

Имтиёзли акциялар сақловчиси компания сиёсатини белгилаш (D-варианти) ва стратегик қарорлар қабул қилиш имкониятидан маҳрум, унинг ҳуқуқлари фақат қатъий белгиланган дивидендларни олиш билан чекланган. Топшириқнинг шартларига энг яқин В-варианти бўлиб, унда компаниянинг капиталидаги улушга бўлган мулк ҳуқуқи ҳақида сўз юритилади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 3.2.Е-бандига қаранг

20-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Интеллектуал мулк объектига мутлақ бўлмаган мулк ҳуқуқларни шартнома асосида бериш ҳолати лицензиатга кўрсатилган объектни тасарруф этиш ҳуқуқини бермайди. Шартномада фақат фойдаланиш ҳуқуқи кўрсатилиши мумкин.

Бундан чекланган тасарруф этиш ҳуқуқи (бошқа фойдаланувчиларга бериш) лицензия шартномасида кўрсатилиши мумкин. Шу тариқа, тўғри жавоб – С).

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 3.3.С-бандига қаранг

21-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

Тадбиркорлик фаолияти тушунчаси 25.05.2000 йилдаги «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги 69-II-сон Қонуннинг 3-моддасида «тадбиркорлик фаолияти субъектлари томонидан қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга ошириладиган, таваккал қилиб ва ўз мулк ҳуқуқлари остида даромад (фойда) олишга қаратилган ташаббускор фаолият» сифатида таърифланади. Бунда шунга ўхшаш фаолиятнинг асосий белгиларидан бири унинг тизимли асосда бўлишидир.

Юқорида баён этилганларни ҳисобга олиб, жисмоний шахсга қолган квартирани реализация қилиш тадбиркорлик фаолияти ҳисобланмайди, чунки тизимлилик, таваккал қилиш, махсус субъект (қонунчилик талабларига мувофиқ рўйхатдан ўтган тадбиркор) белгилари мавжуд эмас.

Жисмоний шахс турли миқдордаги манбалардан даромад олиши мумкин (меҳнат муносабатлари, мулкда бўлган мол-мулкни реализация қилиш, алиментлар ва ҳ.к.), аммо бу ўз-ўзидан тадбиркорлик фаолиятини ташкил этмайди. Мулкни сотиш нархининг уни сотиб олиш нархидан юқори бўлиши солиқ мажбуриятларининг юзага келишига олиб келиши мумкин, аммо ўз-ўзидан тадбиркорлик фаолияти таркибини ҳосил қилмайди.

Йил давомида биттадан кўп квартирани реализация қилиш жисмоний шахснинг солиқ мажбуриятларини ўзгартириши мумкин, бироқ, бошқа белгиларнинг мавжуд эмаслиги тадбиркорлик фаолиятини ташкил этмайди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.1.А-бандига қаранг

22-савол жавоби

D.

Жавобга изоҳ:

Солиқ кодексининг 36-моддаси 10-қисмида белгиланишича, «агар чет эл юридик шахси Ўзбекистон Республикасидаги фаолиятини воситачилик (топшириқ) шартномаси ёки шунга ўхшаш шартнома асосида ҳаракат қилувчи ва битимларни ушбу чет эл юридик шахси номидан имзолашга ваколатли бўлмаган мустақил агент орқали амалга оширса» доимий муассаса юзага келмайди. Шу тариқа, коммиссионер норезидентнинг номидан шартномаларни тузмаслигини ҳисобга олиб, ҳатто фаолият кетма-кет 12 ойлик давр давомида 183 кундан кўпроқ давом этса ва филиал, бўлинма ёки ваколатхона ташкил этилишидан қатъи назар, норезидентнинг ДМ ташкил этиш мажбурияти юзага келмайди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.2.D-бандига қаранг

23-савол жавоби

C.

Жавобга изоҳ:

«Масъулияти чекланган ҳамда қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида»ги ЎРҚ-310-II-сон Қонуннинг 15-моддаси 2-хатбошисида белгиланишича, «Жамиятнинг иштирокчилари ва жамиятга қабул қилинадиган учинчи шахслар томонидан жамиятнинг устав фондида (устав капиталига) қўшиладиган пулсиз ҳиссаларнинг пул баҳоси жамият иштирокчилари умумий йиғилишининг жамиятнинг барча иштирокчилари томонидан бир овоздан қабул қилинадиган қарори билан тасдиқланади».

Жамият иштирокчиси ягона эканлигини ҳисобга олиб, у киритилаётган пулсиз мол-мулкни баҳолашни ўз қарори билан амалга оширади. Шу тариқа, қонун ҳарфига риоя қилган ҳолда, жамиятнинг устав фондини 250 млн. сўм миқдорида кўпайтириш қонуний бўлади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.3.A-бандига қаранг

24-савол жавоби

A. D.

Жавобга изоҳ:

Ўзбекистон Республикасида қонунчилик талабларига мувофиқ рўйхатдан ўтказилган хўжалик жамияти, иштирокчилари таркиби ва мақомидан қатъи назар, солиқ резиденти ҳисобланади. Бунда мавжуд устав фондида қўшимча равишда қўшимча капитал жалб қилиш, табиий равишда, устав капиталининг кўпайишига олиб келади.

«Масъулияти чекланган ҳамда қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида»ги ЎРҚ-310-II-сон Қонуннинг 18-моддаси қоидаларига амал қилган ҳолда, жамиятга қабул қилинадиган учинчи шахслар ҳисобидан устав капитали кўпайтирилганда, иштирокчиларнинг улушлари устав капиталидаги ҳиссаларига мутаносиб равишда ўзгариши керак. Шу тариқа, тўғри жавоблар A ва D.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.3.B-бандига қаранг

25-савол жавоби

C.

Жавобга изоҳ:

Ушбу вазиятда электрон рақамли имзо муайян мансаб вазифаларини (юридик шахс директори) бажарувчи муайян жисмоний шахсга берилган. Тегишинча, директор алмашганда, аввалги ЭРИ бекор қилиниши ва юридик шахсга янги ЭРИ берилиши лозим.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.4.E-бандига қаранг

26-савол жавоби

B. C.

Жавобга изоҳ:

13.09.2022 йилдаги ПҚ-374-сон қарорнинг 2-бандига мувофиқ, «тадбиркорлик субъектлари фаолиятида ўтказиладиган барча текширувлар «Ягона давлат назорати» ахборот тизимида рўйхатга олинади. Бунда тадбиркорлик субъектлари фаолиятида мазкур тизимда рўйхатга олинмаган текширувларни ўтказиш ноқонуний ҳисобланади». Тегишинча, В ва С жавоблари тўғри ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.6.D-бандига қаранг

27-савол жавоби

A. D.

Жавобга изоҳ:

Солиқ текширувини ўтказишда тарафлар Солиқ кодексининг 17-боби ва 07.01.2021 йилдаги 1-сон ВМҚга 2-илова «Солиқ текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом»га амал қилишлари керак.

Ушбу ҳужжатларда текширув бошланишидан олдин текширувчилар томонидан тақдим этиладиган ҳужжатлар рўйхати белгиланган. Текширилувчи текширувчилардан қонунда кўрсатилган ҳужжатларни талаб қилиш ҳуқуқига эга.

Адвокат ёки бошқа қонуний вакилнинг иштироки текширилувчининг ҳуқуқи бўлиб, у бундан воз кечиши мумкин. Адвокатнинг йўқлиги текширувчиларни текширув ўтказишга йўл қўймаслик учун асос бўлмайди. Бироқ, қўзғатилган жиноят иши доирасида тадбиркорлик субъекти текшириляётганда, агар тадбиркорлик субъекти адвокат жалб қилиш ниятини билдирса, адвокат келгунга қадар текширув бошланиши йигирма тўрт соатга тўхтатилади. Йигирма тўрт соат ўтгач адвокат тадбиркорлик субъектини ҳимоя қилишга киришмаган тақдирда, текширув унинг иштирокисиз бошланади. (Қўзғатилган жиноят ишлари бўйича тадбиркорлик субъектлари фаолиятини текширишда адвокатларнинг мажбурий иштирокини таъминлаш тартиби тўғрисида низом 3-б., 28.01.2016 й. АВ рўйхат рақами 2757-сон)

Солиқ кодексининг 146-моддаси талаб қилинган ҳужжатлар талабнома тақдим этилган санадан бошлаб 5 кун ичида солиқ органига тақдим этилиши лозимлигини (солиқ органи томонидан бу муддат узайтирилиши мумкин) белгилайди. Бош бухгалтернинг касаллиги ахборот тақдим этишни рад этиш учун асос бўлмайди.

Солиқ кодексининг 146-моддаси 11-қисмида белгиланишича «Солиқ текшируви ва солиқ назоратининг бошқа тадбирлари жараёнида солиқ органлари текшириладиган шахснинг камерал ёки сайёр солиқ текширувлари ўтказилганда солиқ органларига илгари тақдим этилган ҳужжатларни, шунингдек солиқ мониторингини ўтказиш жараёнида тасдиқланган кўчирма нусхалар шаклида тақдим этилган ҳужжатларни текшириладиган шахсдан талаб қилиб олишга ҳақли эмас. Агар ҳужжатлар илгари солиқ органига асл нусхалар тарзида тақдим этилиб, кейинчалик текшириладиган шахсга қайтарилган бўлса, шунингдек солиқ органига тақдим этилиб, бартараф этиб бўлмайдиган куч ҳолатлари оқибатида йўқотилган тақдирда, ҳужжатлар текшириладиган шахсдан қайта талаб қилиб олиниши мумкин».

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.6.Е-бандига қаранг

28-савол жавоби

С.

Жавобга изоҳ:

Адвокат ёки бошқа қонуний вакилнинг иштироки текширилувчининг ҳуқуқи бўлиб, у бундан воз кечиши мумкин. Адвокатнинг йўқлиги текширувчиларни текширув ўтказишга йўл қўймаслик учун асос бўлмайди. Бироқ, қўзғатилган жиноят иши доирасида тадбиркорлик субъекти текшириладиганда, агар тадбиркорлик субъекти адвокат жалб қилиш ниятини билдирса, адвокат келгунга қадар текширув бошланиши йигирма тўрт соатга тўхтатилади. Йигирма тўрт соат ўтгач адвокат тадбиркорлик субъектини ҳимоя қилишга киришмаса, текширув унинг иштирокисиз бошланади. (Қўзғатилган жиноят ишлари бўйича тадбиркорлик субъектлари фаолиятини текширишда адвокатларнинг мажбурий иштирокини таъминлаш тартиби тўғрисида низом 3-б., 28.01.2016 й. АВ рўйхат рақами 2757-сон)

Сайёр солиқ текшируви 07.01.2021 йилдаги 1-сон ВМҚга 2-илова «Солиқ текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом»нинг 5-боби билан тартибга солинади, унда солиқ тўловчига режалаштирилган текширув тўғрисида хабарнома юбориш ва тижорат сирини ошкор қилмаслик тўғрисидаги келишувни имзолаш зарурлиги тўғрисидаги талаб мавжуд эмас.

Юқорида кўрсатилган МҲҚнинг 9-бандида белгиланишича, «Сайёр солиқ текшируви ва солиқ аудити Текширувларни электрон рўйхатга олиш ягона тизими орқали Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакилни хабардор қилган ҳолда амалга оширилади, давлат рўйхатидан ўтмасдан тадбиркорлик фаолиятини амалга оширувчи жисмоний шахсларни текшириш бундан мустасно. Солиқ тўловчиларда ўтказилган текширув натижалари солиқ органлари томонидан текширув тугатилганидан кейин уч кун ичида Текширувларни электрон рўйхатга олиш ягона тизимига киритилади».

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 4.7.А-бандига қаранг

29-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 8-моддаси 2-хатбошисида белгиланишича, хусусан, «Фуқаролик ҳуқуқ ва мажбуриятлари ... бошқа шахсга зарар етказиш натижасида» вужудга келади. Тегишинча, зарар етказилган пайтда шахснинг уни қоплашни талаб қилиш ҳуқуқи вужудга келади.

Фуқаролик кодексининг 985-моддасида белгиланишича «Ғайриқонуний ҳаракат (ҳаракатсизлик) туфайли фуқаронинг шахсига ёки мол-мулкига етказилган зарар, шунингдек юридик шахсга етказилган зарар, шу жумладан бой берилган фойда зарарни етказган шахс томонидан тўлиқ ҳажмда қопланиши лозим».

Бунда Фуқаролик кодексининг 1001-моддасида белгиланишича, «Бошқа шахс (меҳнат мажбуриятларини бажараётган ходим, транспорт воситасини бошқарувчи шахс ва ҳ.к) томонидан етказилган зарарни тўлаган шахс бу шахсга нисбатан, агар қонунда бошқача миқдор белгиланмаган бўлса, тўланган товон миқдорида қайта талаб қилиш (регресс) ҳуқуқига эга».

Шу тариқа, юридик шахс бош бухгалтер томонидан етказилган зарарни етказилган зарар миқдорида регресс тартибида компенсация қилишни талаб қилиш ҳуқуқига эга.

Суд Фуқаролик кодексининг тегишли қоидаларига амал қилган ҳолда, ҳаёда шартномасини ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб топиши мумкин.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.1.С-бандига қаранг

30-саволга жавоб

А.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 319-моддасида талаб қилиш ҳуқуқидан бошқа шахс фойдасига воз кечиш учун қарздорнинг розилиги фақат «кредиторнинг шахси қарздор учун муҳим аҳамиятга эга бўлган» ҳолларда мажбурий эканлиги белгиланган. Фуқаролик кодексининг 322-моддасида эса «Қарздорнинг ўз қарзини бошқа шахсга ўтказишига фақат кредиторнинг розилиги билан йўл қўйилади» дейилган.

Шу тариқа, бу ҳолда а) варианти қонуний ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.1.Е-бандига қаранг

31-саволга жавоб

А.

Жавобга изоҳ:

Солиқ кодексининг 15-моддаси 2-қисмида белгиланишича, «Солиқ тўловчи томонидан унинг олдидаги ўз мажбуриятларини бажармаган шахслар билан тузилган битимлар бўйича қилинган харажатлар (кўрилган зарарлар), агар ушбу солиқ тўловчи битим тузаётганда лозим даражада эҳтиёткорлик қилмаган бўлса, солиқ солиш мақсадида тан олинмайди».

Шу тариқа, контрагентни танлашда лозим даражада эҳтиёткорлик мақсади юридик шахс учун салбий солиқ оқибатларидан қочиш ҳисобланади.

Шу тариқа, мазкур ҳолда а) варианты тўғри ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.2.Е-бандига қаранг

32-саволга жавоб

А.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 123-моддасида томонлар вакиллариинг ёвуз ниятли келишуви таъсирида тузилган битимни аниқлаш ҳолатида ҳаракатлар тартиби қуйидагича белгиланган: «Алдаш, зўрлик, қўрқитиш, бир тараф вакилининг иккинчи тараф билан ёмон ниятда келишиши таъсирида тузилган битим, шунингдек фуқаро оғир ҳолатлар юз бериши туфайли ўзи учун ўта ноқулай шартлар билан тузишга мажбур бўлган, иккинчи тараф эса бундан фойдаланиб қолган битим (асоратли битим) жабрланувчининг даъвоси бўйича суд томонидан ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин».

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.3.D-бандига қаранг

33-саволга жавоб

А.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 28-боби шартномани ўзгартириш ва бекор қилиш асослари ва тартибини белгилайди. Бунда а) бандида баён қилинган фикр тўғри ҳисобланади (Фуқаролик кодексининг 385-моддаси).

385-модданинг 4-хатбошисида белгиланишича, «Агар қонунда ёки тарафларнинг келишувида бошқача тартиб белгилаб қўйилган бўлмаса, тарафлар шартнома ўзгартирилгунча ёки бекор қилингунча мажбурият бўйича ўзлари бажарган нарсаларни қайтариб беришни талаб қилишга ҳақли эмаслар».

Мазкур модданинг 3-хатбошисида белгиланишича, шунингдек «шартнома суд тартибида ўзгартирилган ёки бекор қилинганида эса - суднинг шартномани ўзгартириш ёки бекор қилиш ҳақидаги қарори қонуний кучга кирган пайдан бошлаб».

Фуқаролик кодексининг 382 ва 383-моддалари, шунингдек, контрагент шартнома бўйича ўзининг барча мажбуриятларини бажараётган ҳолларда ҳам томон шартномани ўзгартиришни таклиф қилиш ҳуқуқига эга эканлигини белгилайди. Шунга ўхшаш ҳолат қонун ёки шартномада тўғридан-тўғри кўрсатилган ҳолларда, шунингдек биринчи томон учун ҳолатларнинг жиддий ўзгариши ҳолатида, Фуқаролик кодексининг 383-моддаси 3-хатбошисида баён этилган шартлар бир вақтнинг ўзида рўй берганда содир бўлиши мумкин.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.4.С-бандига қаранг

34-саволга жавоб

В.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 139-моддасида белгиланишича, хусусан, «Агар ишонномада муддат кўрсатилган бўлмаса, у берилган кундан бошлаб бир йил мобайнида ўз кучини сақлайди».

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.5.С-бандига қаранг

35-саволга жавоб

А. С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексининг 455-моддасида белгиланишича, хусусан, «Маҳсулот етказиб бериш шартномасини бажаришдан бир томонлама (тўлиқ ёки қисман) бош тортишга тарафларнинг бири шартномани жиддий бузган тақдирда йўл қўйилади».

Харидор учун етказиб берувчининг жиддий бузиши «тегишли даражада сифатли бўлмаган, сотиб олувчи учун мақбул муддатда бартараф қилиб бўлмайдиган камчиликларга эга бўлган товарларни етказиб бериш; товарларни етказиб бериш муддатларини бир неча бор бузиш» ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.6.А-бандига қаранг

36-саволга жавоб

С.

Жавобга изоҳ:

Фуқаролик кодексида неустойка тўлаш тарзидаги жавобгарлик чораси ФКнинг 260-моддасида (мажбуриятни таъминлаш шакли сифатида) белгиланган.

Бошқа шахснинг пул маблағларидан фойдаланганлик учун фоизлар тўлаш Фуқаролик кодексининг 327-моддасида белгиланган.

Зарарларнинг ўрнини қоплаш – Фуқаролик кодексининг 324-моддаси.

Мажбуриятларни бузганлик учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарликнинг шартнома чораси сифатида қарздорнинг мол-мулкни хатлаш қонунда назарда тутилмаган.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 5.7.А-бандига қаранг

37-саволга жавоб

C.

Жавобга изоҳ:

Устав фондига ҳисса, шу жумладан қўшимча ҳисса, шахснинг инвестиция фаолияти ҳисобланади.

Устав фондини юридик шахснинг ўз мол-мулки (тақсимланмаган фойда) ҳисобига кўпайтириш устав фондини кўпайтиришда ўз маблағлари бўларди.

Қарз маблағлари белгиланишига кўра муайян вақт ичида қарз берувчига қайтарилиши керак. Шу тариқа, устав фондига ҳисса қарз бўлиши мумкин эмас.

Венчур молиялаштириш инновацион истиқболли лойиҳаларга инвестиция киритишдир.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 6.1.А-бандига қаранг

38-саволга жавоб

B.

Жавобга изоҳ:

«Масъулияти чекланган ҳамда қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида»ги ЎРҚ-310-II-сон Қонуннинг 25-моддасида белгиланишича, хусусан, «Дивидендларни тўлаш муддати ва тартиби жамиятнинг уставида ёки иштирокчиларнинг умумий йиғилиши қарорида белгиланади. Бунда дивидендларни тўлаш муддати жамият иштирокчилари ўртасида фойдани тақсимлаш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан эътиборан олтмиш кундан ошмаслиги керак».

Дивидендларни қонунчиликда белгиланган муддатда тўламаслик кредиторда даъво муддати (3 йил) давомида мажбуриятни бажаришни талаб қилиш ҳуқуқини вужудга келтиради.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 6.4.А-бандига қаранг

39-саволга жавоб

A. C. D.

Жавобга изоҳ:

Иш берувчининг мажбуриятлари Меҳнат кодексининг 25-моддасида белгиланган. Хусусан, унинг меҳнат шартномаларини ЯММТда рўйхатдан ўтказиш, ходимларни уларнинг бирлашиш ҳуқуқи тўғрисида хабардор қилиш, жамоа музокараларини олиб бориш ва жамоа шартномаларини тузиш мажбурияти белгиланган.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.1.А-бандига қаранг

40-саволга жавоб

B. D.

Жавобга изоҳ:

Меҳнат кодексининг 159-моддасида белгиланишича, хусусан, «Муддатли меҳнат шартномаси муддатидан олдин бекор қилинган тақдирда ушбу шартномада тарафларнинг неустойка тўлаш ҳақидаги ўзаро мажбурияти назарда тутилиши мумкин бўлиб, унга биноан, агар якка тартибдаги меҳнатга оид муносабатлар ходимнинг айбли ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) билан боғлиқ бўлмаган асослар бўйича иш берувчининг ташаббусига кўра тугатилган бўлса, иш берувчи ходимга неустойка тўлайди, агар якка тартибдаги меҳнатга оид муносабатлар ходимнинг ташаббусига кўра, шунингдек ходимнинг айбли ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) билан боғлиқ асослар бўйича тугатилган бўлса, ходим иш берувчига неустойка тўлайди».

Меҳнат кодексининг 112-моддасида, шунингдек, вақтинчалик ишларни бажариш вақти учун тузилган шартнома муддатли меҳнат шартномаси ҳисобланиши белгиланган.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.3.В-бандига қаранг

41-саволга жавоб

D.

Жавобга изоҳ:

Ҳар ойлик тўлов, кўрсатилган хизматларни далолатнома билан солиштириш фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятга эга шартноманинг ўзига хос белгилари ҳисобланади. Иш вақти режими, иш жойи тақдим этилиши ва ҳар йилги таътил Меҳнат шартномасининг белгилари ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.3.Е-бандига қаранг

42-саволга жавоб

A.

Жавобга изоҳ:

Меҳнат кодексининг 142-моддаси 3 ва 4-хатбошилари ҳомиладор аёллар ва икки ёшга тўлмаган болалари бўлган аёлларни вақтинча бошқа ишга ўтказиш қоидаларини белгилайди. Ўтказиш учун ходимнинг аризаси ва тиббий ҳулоса тақдим этилиши керак.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.4.В-бандига қаранг

43-саволга жавоб

C.

Жавобга изоҳ:

Меҳнат кодексининг 130-моддасида белгиланишича, хусусан, «Дастлабки синов муддати уч ойдан, ташкилотларнинг раҳбарлари ва уларнинг ўринбосарлари, бош бухгалтерлар ҳамда ташкилотлар алоҳида бўлинмаларининг раҳбарлари учун эса олти ойдан ошмаслиги керак». Шу тариқа, «В» ва «С» компаниялари меҳнат шартномаларини қонуний тузишган.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.5.А-бандига қаранг

44-саволга жавоб

D.

Жавобга изоҳ:

Иш вақтидан ташқари иш учун ҳақ тўлаш шартлари Меҳнат кодексининг 262-моддасида белгиланган. Бунда икки ҳисса миқдорида ҳақ ўрнига қўшимча дам олиш вақти иш берувчининг ихтиёрига кўра эмас, балки ходимнинг хоҳишига кўра берилади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.6.С-бандига қаранг

45-саволга жавоб

A. C.

Жавобга изоҳ:

Интизомий жазо чоралари Меҳнат кодексининг 312-моддасида императив (мажбурий) тартибда белгиланган ва эгаллаб турган лавозимига тўлиқ мувофиқ бўлмаслик ва ишончни йўқотишни ўз ичига олмайди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.9.С-бандига қаранг

46-саволга жавоб

A.

Жавобга изоҳ:

Меҳнат кодексининг 160-моддасида ходим ўз хоҳиши билан ишдан бўшаганда иш берувчини бўшатилишидан 14 календарь кун олдин огоҳлантириши шартлиги белгиланган. Меҳнат кодексининг 9-моддасида муддатни ҳисоблаш белгиланган календарь санадан кейинги кундан эътиборан бошланиши белгиланган. Бунда муддатга дам олиш кунлари ҳам киради. Тегишинча, муддат 21 июндан ўта бошланган, буйруқ охирги иш куни – 4 июлда чиқарилиши керак ва ходим 5 июлдан бошлаб ишдан бўшатиш ҳисобланади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.10.А-бандига қаранг

47-саволга жавоб

A.

Жавобга изоҳ:

Меҳнат кодексининг 173-моддаси 3-қисмида, хусусан, мазкур иш берувчида 3 йилдан 5 йилгача иш стажига эга бўлган ходимлар учун ишдан бўшатиш нафақаси миқдори унинг ўртача ойлик иш ҳақининг 75 фоизидан кам бўлиши мумкин эмаслиги белгиланган. Шу тариқа, ходимга тўланиши лозим бўлган сумма 6 450 000 сўмни ташкил қилади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.10.С-бандига қаранг

48-саволга жавоб

D.

Жавобга изоҳ:

Шахсга доир маълумотлар билан ишлаш тартиби 2019 йил 2 июлдаги «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги ЎРҚ-547-сон Қонун билан белгиланган. У ўз мажбуриятларини бажариши сабабли ошкор қилган шахсга маълум бўлиб қолган шахсга доир маълумотларни ноқонуний ошкор қилганлиги учун уларнинг қонунда белгиланган жавобгарлигини назарда тутди.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 7.11.C-бандига қаранг

49-саволга жавоб

C.

Жавобга изоҳ:

«Ҳакамлик судлари тўғрисида»ги ЎРҚ-64-сон Қонуннинг 49, 50-моддаларида ҳакамлик судининг ҳал қилув қарори ҳал қилув қарорида белгиланган муддатларда ихтиёрий ижро этилиши белгиланган. Акс ҳолда мажбурий ижро этиш ваколатли суд берган ижро варақаси асосида амалга оширилади.

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 8.1.D-бандига қаранг

50-саволга жавоб

A.

Жавобга изоҳ:

Иқтисодий процессуал кодекснинг 143-моддасида белгиланишича, хусусан, «Суд буйруғи судья томонидан суд муҳокамасисиз, кредитор ва қарздорни чақиртирмасдан, уларнинг тушунтиришларини эшитмасдан якка тартибда берилади». Суд буйруғи ИПКнинг 136–138-моддаларида белгиланган тартибда ундирувчи томонидан тақдим этилган ҳужжатлар асосида берилади.

Умумий юрисдикция судларида суд буйруқлари учун ҳам шунга ўхшаш тартиб-таомил амал қилади (Фуқаролик процессуал кодексининг 170-177-моддалари).

«Ҳуқуқ асослари» ўқув режасининг 8.2.D-бандига қаранг